

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/05.05.2023.Fil.02.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**MIRZAYEV XAYYOM TOSHQULOVICH**

**XVI-XIX ASRLAR FORS-TOJIK ARUZSHUNOSLIGINING  
SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH TAMOYILLARI**

**10.00.05 - Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti  
(tojik tili va tojik adabiyoti)**

**FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2025**

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора (DSc)  
филологических наук**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of science (DSc)  
on philological sciences**

**Mirzayev Xayyom Toshqulovich**

XVI-XIX asrlar fors-tojik aruzshunosligining shakllanish va rivojlanish  
tamoyillari..... 3

**Мирзаев Хайём Тошкуллович**

Принципы формирования и развития персидско-таджикского  
арузоведения XVI-XIX веков..... 33

**Mirzaev Khayyom Toshkulovich**

Principles of formation and development of Persian-Tajik aruz studies  
in the 16<sup>th</sup>-19<sup>th</sup> centuries ..... 67

**E’lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 73

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/05.05.2023.Fil.02.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**MIRZAYEV XAYYOM TOSHQULOVICH**

**XVI-XIX ASRLAR FORS-TOJIK ARUZSHUNOSLIGINING  
SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH TAMOYILLARI**

**10.00.05 - Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti  
(tojik tili va tojik adabiyoti)**

**FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2025**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.DSc/Fil798 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samdu.uz) hamda “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Hamroyev Jumaqul**  
filologiya fanlari doktori

**Rasmiy opponentlar:**

**Eshonqulov Husniddin Primovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Misbohiddini Narziquil (Mahmudzoda)**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Yusupova Dilnovoz Rahmonovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/05.05.2023.Fil.02.11 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “\_\_\_\_\_” soat \_\_\_\_\_ da majlislar zalida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel: (8366) 239-11-40, 239-18-92; faks: (8366) 239-11-40; e-mail:rector) @samdu.uz.

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan) Manzil:140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel: (8366) 239-11-40, 239-18-92; faks: (8366) 239-11-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil “\_\_\_\_\_” kuni tarqatildi.  
(2025 yil “\_\_\_\_\_” dagi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**Sh.A. Hasanov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

**D.B. Xursanov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**N.M. Muxitdinova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

## KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon adabiyotshunosligida nazariy poetikaning shakllanish va rivojlanish bosqichlarini yoritib berish, she'riyat vaznining tarixiy ildizlari va asoslarini aniqlash dolzarb masalalardan sanalib, mazkur yo'nalishda G'arb va Sharqning ko'plab olimlari tomonidan muhim tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Xususan, mumtoz poetikaning tadrijiy taraqqiyot bosqichlari, badiiy asar yaratish mezonlari, ularning shakliy, avzoniy xususiyatlari kabi muammolarni hal etish zamonaviy adabiyotshunoslikning dolzarb masalalari sifatida qaralmoqda. Shu nuqtayi nazardan jahon adabiy doiralarda she'riyatning tuzilish qonuniyatlari – vazn va qofiya bilan bevosita bog'liq bo'lgan o'tgan asrlardagi nazariy asarlarni zamonaviy ilm-fanga olib kirish va ulardagi mavjud ilmiy qarashlarni amalda tatbiq etish muhimligicha qolmoqda.

Dunyo adabiyoti tarixida XVI-XIX asrlar turli din va millat vakillarining dunyoqarashi, g'oyalari, mafkuralarining o'zgarib borish davri sifatida muhim o'rin tutadi. Bu asrlarda siyosiy-ijtimoiy vaziyatga qarab madaniyat, san'at, fan, adabiyot ham o'zining yangi rivojlanish bosqichiga qadam qo'ydi. Xususan, Sharq mamlakatlarida filologiya fanlari sohasida ilmiy-ma'rifiy asarlar, risolalar, izohli lug'atlarning yaratilishi sezilarli darajada ortib, bugungi jahon ilm-fani va madaniyati rivoji uchun muhim zamin yaratdi. Mazkur davrlarda Movarounnahr, Xuroson, Hindiston, Pokiston, Turkiya, Ozarbayjon va boshqa mintaqalarda nazariyotchi olimlar fors-tojik va o'zbek aruz ilmiga oid risolalar yaratdilarki, ularni o'rganish hozirgi zamon adabiyotshunosligining asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Mamlakatimizda uchinchi renesans davrining asosiy tayanchlaridan biri boy madaniyat va adabiyotimizning jahon hamjamiyatida yanada tanitish va ularning mantiqiy davomi o'laroq muhim ilmiy kashfiyotlarga erishishdir. “Avvalo, xalqimizning yaratuvchilik dahosi bilan bunyod etilgan noyob merosini har tomonlama chuqur o'rganish, yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk alloma va mutafakkirlarning hayoti va ilmiy-ijodiy faoliyati haqida yaxlit tasavvur uyg'otish, yosh avlodni gumanistik g'oyalari, milliy g'urur va iftixor ruhida tarbiyalashdek ezgu maqsadlar ko'zda tutilgan”<sup>1</sup>. Shu nuqtayi nazardan tadqiqotimizda bugungi davr o'quvchisiga haligacha noma'lum bo'lgan qadimgi mutafakkirlarimizning nazariy asarlarini o'rganish, ajdodlarimiz ilgari surgan g'oyalarni zamonaviy ta'limda tatbiq etish vazifalari ustuvor sanaladi. Shu bois dissertatsiya natijalari orqali o'rganilayotgan asarlarning ilmiy, nazariy va ma'rifiy ahamiyatini oydinlashtirish ko'zda tutilgan bo'lib, bu jihatlar tadqiqotimizning muhimligini asoslaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 13 maydagi PF-4797-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti faoliyatini tashkil etish to'g'risida” Farmoni, 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”, 2017 yil 13 sentabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустахкам пойдеворидир. Президент Ш.Мирзиёевнинг Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси / Халқ сўзи. – Тошкент, 2017, 4 август.

rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida", 2017 yil 17 fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, bajarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020 yil 19 oktabrdagi PQ-4865-son "Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi Qarorlari, "Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevori" mavzusidagi ma'ruzasi hamda boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi**<sup>2</sup>. Markaziy Osiyodagi ko'p millatli xalqlarning madaniyati, san'ati, ilm-fani va adabiyoti, shuningdek, mumtoz o'zbek, fors-tojik she'riyatining turli masalalari, XVI-XIX asrlarda ilmiy adab: aruz, qofiya va badi' yo'nalishlarining shakllanish va rivojlanish tamoyillarini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlarida, jumladan, Oksford universiteti, Kembrij universiteti (Buyuk Britaniya); The Centre of Arabic and Islamic studies, University of Melbourne; Islamic Sciences and Research Academy, University of Western Sydney (Avstraliya); The Roshan Institute for Persian Studies at the University of Maryland; Center of Near Eastern Languages and Civilizations, University of Chicago; Near Eastern Languages and Cultures Department, Ohio State University (SHMA); دانشگاه تهران, دانشگاه فردوسی مشهد, (Eron); Aligarh Muslim University, Delhi University (Hindiston); İstanbul Üniversitesi, Ankara Üniversitesi, Gazi Üniversitesi (Turkiya); Azərbaycan milli elmlər akademiyası Nizami adına ədəbiyyat İnstitutu va Z.Bünyadov adına Şərqsünaslıq İnstitutu (Ozarbayjon); əl-Farabi atindag'i Qazaq Ұлттық университети (Kozog'iston); Institut Vostokovedeniya, Institut Azii i Afriki pri MGU, Vostochniy fakultet pri SPBGU, Institut vostochnix rukopisey v Sankt-Peterburge (Rossiya); Institut vostokovedeniya AN Ukraini im. A. Krimskogo (Ukraina); Tojikiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Rudakiy nomidagi til, adabiyot, sharqshunoslik va qo'lyozmalar fondi instituti, Tojikiston Milliy universiteti, Akademik Bobojon G'afurov nomidagi Xujand davlat universiteti (Tojikiston); O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining O'zbek tili, adabiyoti va folklor instituti, Aburayhon Beruniy nomidagi Toshkent davlat

---

<sup>2</sup>Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi <https://arts.unimelb.edu.au/nceis>; <https://www.westernsydney.edu.au>; <https://slc.umd.edu/persian/about>; <http://nelc.uchicago.edu>; <https://nelc.osu.edu>; <http://ut.ac.ir>; <http://www.um.ac.ir>; <https://www.amu.ac.in>; <http://www.du.ac.in/du>; <http://www.istanbul.edu.tr/tr>; <https://www.ankara.edu.tr>; <http://gazi.edu.tr>; <https://www.orientalstudies.az/ru>; <http://literature.az/?lang=aze>; <http://www.kaznu.kz/ru>; [www.iaas.msu.ru](http://www.iaas.msu.ru); <https://www.ivran.ru>; <https://spbu.ru>; [www.orient.spbu.ru/ru](http://www.orient.spbu.ru/ru); <http://www.orientalstudies.ru>; <http://oriental-studies.org.ua/uk/home>; <http://zoa.dmt.ty>; <http://iza.ty/ru/institut-yazyka-literatury-vostokovedeniya-i-pismennogo-naslediya-im-rudaki>; <http://tashgiv.uz/ru/>; <http://navoiy-uni.uz/uz-k>; <http://www.samdu.uz> va boshqa manbalar asosida amalga oshirildi.

sharqshunoslik universiteti, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Buxoro davlat universiteti (O‘zbekiston)da olib borilmoqda.

Jahon she’rshunosligida mumtoz va zamonaviy she’riyat tizimi, uning shakllanish va rivojlanish tendensiyalari, she’riyat tarkibida ritmik birliklarning tutgan o‘rni, she’r arxitektonikasi, she’r lingvopoetikasi, she’riyatning janr xususiyatlari, mumtoz she’riyatda aruz yaratish mezonlari kabi she’riyatning dolzarb masalalarini o‘rganishda quyidagi natijalarga erishilgan: aruz tizimi va uning tadrijiy taraqqiyoti, turli xalqlar she’riyatining xususiyatlari, jumladan, fors, tojik, o‘zbek, turk, ozarbayjon, tatar, arab va boshqalar, she’riyatning genezisi va nazariy jihatlari yoritilgan (Oksford universiteti, The Roshan Institute for Persian Studies at the University of Maryland, دانشگاه فردوسی مشهد, Aligarh Muslim University, Delhi University, İstanbul Üniversitesi, Ankara Üniversitesi, Gazi Üniversitesi, Azərbaycan milli elmler akademiyası Nizami adına ədəbiyyat İnstitutu va Z.Bünyadov adına Şərqsünaslıq İnstitutu; əl-Farabi atindag‘i Qazaq Ұлттық universiteti; Institut Vostokovedeniya, Tojikiston Milliy universiteti, Akademik Bobojon G‘afurov nomidagi Xujand davlat universiteti, Aburayhon Beruniy nomidagi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Buxoro davlat universiteti); jahon qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan aruz ilmiga oid asarlarning qo‘lyozmalarini nashrga tayyorlash, tanqidiy matnlarini yaratish va tadqiq etish (əl-Farabi atindag‘i Qazaq Ұлттық universiteti, Institut Vostokovedeniya, Institut Azii i Afriki pri MGU, Vostochniy fakultet pri SPbGU, Institut vostochnix rukopisey v Sankt-Peterburge, Tojikiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Rudakiy nomidagi til, adabiyot, sharqshunoslik va qo‘lyozmalar fondi instituti); fors-tojik aruzshunosligi tarixi va uning tadrijiy taraqqiyoti, sharq mumtoz poetikasiga xos nazariy xususiyatlarning fors-tojik aruz vazni taraqqiyotidagi o‘rni, zamonaviy she’riyat takomilida aruz vazni ta’siri, bugungi Sharq she’riyatida aruz vaznining iste’mol darajasini aniqlash (Institut vostokovedeniya AN Ukraini im. A. Krimskogo, Institut Vostokovedeniya, Institut Azii i Afriki pri MGU, تهران دانش گاه , مشهد فردوسی دانش گاه , Tojikiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Rudakiy nomidagi til, adabiyot, sharqshunoslik va qo‘lyozmalar fondi instituti, Aburayhon Beruniy nomidagi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining O‘zbek tili, adabiyoti va folklor instituti).

Bugungi kunda jahon she’rshunosligida Sharq shoirlari, shu jumladan, fors-tojik shoirlari she’riyati nazariyasining shakllanish va rivojlanish tamoyillari bir qator barqaror tadqiqot yo‘nalishlari asosida ko‘rib chiqilmoqda. Chunonchi, Sharq adabiyotida she’riyatning paydo bo‘lish omillarini aniqlash, eng qadimgi davr diniy va madaniy merosi sanalgan “Avesto” asarida she’riy namunalari va nazmiy parchalarning mavjudligi, fors-tojik she’riyatida barmoq va aruz vaznlarining mushtarak va farqli jihatlari, arab va ajam aruzining mushtarak va o‘ziga xos xususiyatlari, aruz ilmiga bag‘ishlangan asarlarning jahon miqyosidagi katalogini tuzish, aruz tizimini o‘rganishda innovatsion vositalarni qo‘llash, she’riyatda vazn

va qofiya mutanosibliği, XXI asr she'riyatida aruz vaznining kam qo'llanilish omillari kabi muhim tadqiqot yo'nalishlari shular jumlasidandir.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** O'tgan va hozirgi davr tojik adabiyotshunosligida XVI-XIX asrlar fors-tojik aruzshunosligining shakllanish va rivojlanish tamoyillari mavzusiga bag'ishlangan alohida va keng qamrovli tadqiqot hali yuzaga kelmagan. Biroq bu asrlar adabiyotining umumiy manzarasini tushunish, xususan, davr adabiyoti tarixi va nazariyasining umumiy ahvolini tasavvur etish uchun mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning bir qator tadqiqotlari, monografiyalari va darsliklarini e'tirof etish maqsadga mivofiq. Masalan, xorij adabiyotshunoslari H.Bloshman (Germaniya), D.De Uis (AQSH), M.Simidcheva (Kanada), L.R.Elvell-Satton (Angliya), Yan Ripka (Chexiya), A.B.Kudelin, D.V.Frolov, I.V.Stebleva, N.Y.Chalisova, B.Y.Shidfar, I.M.Filshtinskiy, M.N.Osmanov, N.N.Boldirev, Ye.E.Bertels, I.S.Braginskiy (Rossiya), P.N.Xonlariy, Sh.Nu'moniy, M.Huquqiy, S.Shamiso, Sh.Langrudiy, B.Sherakiy, Q.Hasanaliy, M.Ruzbeh, Y.Orinpur, A.A.She'rdust (Eron); A.Ja'far (Ozarbayjon), X.Kurbatov, X.Usmonov, M.Bakirov (Tatariston), Z.A.Axmetov, A.Tilavaldi, Sh.S.Kaliyeva (Qozog'iston), K.Risaliyev (Qirg'iziston), A.Bekmuradov (Turkmaniston) adabiyot tarixi va nazariyasining turli masalalari, xususan, arab, fors, tojik, o'zbek, ozarbayjon, tatar, qozoq, qirg'iz, turkman she'riyatining vazni, qofiyasi va badiiyati masalalariga doir ko'plab tadqiqotlarni amalga oshirganlar<sup>3</sup>.

Ayrim tojik va o'zbek olimlarining tadqiqotlari tadqiqot mavzuimiz davri va yo'nalishi bilan mushtarak tarzda amalga oshirilgan bo'lib, ularda XVI-XIX asrlar fors-tojik va o'zbek adabiyoti bilan bog'liq bir qator masalalar, jumladan, davr adabiy jarayoni va muhiti, davr adabiy janrlarining shakllanishi va takomili, davr she'riyatining yorqin namoyandalari, ba'zi shoirlar she'riyatining poetik tahlili kabi

---

<sup>3</sup>Blochmann H. Prosody of the Persians according to Saifi, Jami and other writers. Calcutta, 1872; Simidcheva M. Imitation and Innovatsion in Timueid Poetics: Kashifi's Badayi al-afkar and Predecessors, al-Mu'cham and Hada'iq al-sihr // Iraninan Studies, volume 36, number 4, 2003; Куделин А.Б. Средневековая арабская поэтика (вторая половина VIII-XI век). – М.: Наука, 1983; Фролов Д.В. Арабская филология. – М.: Языки славянской культуры, 2006; Фролов Д.В. Классический арабский стих. История и теория аруда. – М.: Наука. 1991; Стеблева И.В. О проникновении арабо-персидских метров в тюрко-язычную поэзию / Проблемы теории литературы и эстетики в странах Востока. – М.: Наука, 1964; Стеблева И.В. Ритм и смысл в классической тюркоязычной поэзии. – М.: Наука, 1993; Чалисова Н.Ю. Ватват и его трактат “Сады волшебства в тонкостях поэзии” // Ватват. Сады волшебства. – М.: Наука. 1985; Чалисова Н.Ю. Персидская поэзия на весах поэтики // Шамс Кайс Рази. Свод правил персидской поэзии. – М.: Восточная литература, 1997; Бертельс Е.Э. Избранные труды. Наваи и Джами. – Москва: Наука, 1965; Парвиз Нотили Хонларй. Тахкики интикодй дар арузи форсей ва чигунагии тахаввули авзони ғазал, Техрон, 1327; Парвиз Нотили Хонларй. Вазни шеъри форсей. – Техрон, 1335; Шиблии Нуъмонй. Шеър ул-Ачам. Чилди дуввум, чопи дуввум. – Техрон, 1339; Шамисо Сирус. Ошной бо аруз ва кофия. Чопи дуввум. – Техрон: нашри Митро. 1974; Алиасгар Амир Шердуст. Послереволюционная поэзия Исламской Республики Иран. Авт.дис. ... канд.филол.н. - Баку, 1992. - 55 с.; Джафар А. Особенности азербайджанской поэтической метрики аруза. – Москва: Наука, 1960; Курбатов Х.Р. Метрика «аруз» в татарском стихосложении // Советская тюркология. – № 6, 1973; Усманов Х.У. Древние истоки тюркского стиха. – Казань, 1984; Усманов Х.У. Тюркский стих в средние века. – Казань: КГУ, 1987; Шидфар Б.Я. Образная система арабской классической литературы (VI–XII вв.). – М.: Наука, 1974; Османов М.-Н.О. Стиль персидско-таджикской поэзии IX-X вв. – М.: Наука, 1974; Чэфэр Э. Эрузун нэзэри эсаслары вэ Азербаччан эрузу. – Баку: Елм, 1977; Бакиров М.Х. Закономерности тюркского и татарского стихосложения в свете экспериментальных исследований. Автореф. дисс. ....канд филол.наук. – Казань, 1972; Бакиров М.Х. Генезис и древнейшие формы общетюркской поэзии. Автореф. дисс. ....докт. филол. наук. – Казань, 1999; Ахметов З.А. Казахское стихосложение. – Алматы, 1964; Тилавалди А. Древнетюркский книжный стих. – Алматы, 2002; Рысалиев К. Киргизское стихосложение. – Фрунзе, 1965; Бекмуратов А. Основные тенденции развития стихосложения в туркменской советской поэзии. Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ашхабад, 1980.

masalalar o‘z yechimini topgan. Bu borada To‘raqul Zehniy, Bahrom Sirus, Abdulg‘ani Mirzoyev, Rasul Hodizoda, Rahim Musulmonqulov, Usmon Karimov, Xudoi Sharifov, Abdunabi Sattorzoda, A‘loxon Afsahzod, Subhon Davronov, Urvatullo Toirov, Mirzo Solehov, Tojiddin Mardoniy, Najibullohi Abdulqayum, Nurali Nurov, Misbohiddin Narziqu<sup>4</sup> (Tojikiston), Izzat Sulton, Shoislom Shomammedov, Botirxon Valixo‘jayev, Sadri Sa‘diyev, Jum‘aqul Hamroyev, Najmiddin Komilov, Muslihiddin Muhiddinov, Hotam Umurov, Anvar Hojiahmedov, Ummat To‘ychiyev, Saidbek Hasanov, Ibrohim Haqqulov, Hamidullo Boltaboyev, Boqijon To‘xliyev, Sultonmurod Olimov, Abdusalom Samadov, Sirojiddin Xo‘jaqulov, Gulxumor To‘ychiyeva, Dilnavoz Yusupova, Salimai Rustamiy<sup>5</sup> (O‘zbekiston) va boshqalarning tadqiqotlarini e‘tirof etish maqsadga muvofiq.

<sup>4</sup> Зехнӣ Т. Санъати сухан. – Душанбе: Ирфон, 1979; Сирус Б. Арӯзи тоҷикӣ. – Душанбе: Нашриёти давлатии Тоҷикистон, 1963; Давронов С. Омӯзиши вази шеъри тоҷикӣ. – Душанбе: Ирфон, 1992; Мусулмонкулов Р. Персидско-таджикская классическая поэтика. (X-XV вв.). – Москва: Наука, 1989; Мусулмонкулов Р. Атауллах-и Махмуд-и Хусайни и вопросы таджикско-персидской классической поэтики. АДД, - Душанбе, 1980; Каримов У. Адабиёти тоҷик дар асри XVI. – Душанбе: Дониш, 1985. – 228 с.; Сатторов А. Афкори адабӣ ва эстетикӣ Абдурахмони Ҷомӣ. – Душанбе: Ирфон, 1975; Сатторов А. Таърихчаи назариёти адабии форсии тоҷикӣ. – Душанбе: “Адиб”, 2001; Тоиров У. Таҳқиқ ва таълими арӯз. – Душанбе: “Дониш”, 1995; Тоиров У. Таҳаввул ва тақомулоти арӯз дар назария ва амалияи шеъри форсӣ-тоҷикӣ. – Душанбе: “Ҳочӣ Хусайн”, 2015; Тоиров У., Солеҳов М. Китобҳои таълимии адабӣ. – Душанбе: “ЭР-граф”, 2016; Тоиров У. Фарҳанги истилоҳоти арӯзи Аҷам. – Душанбе: “Маориф”, 1991. Тоиров У. Становление и развитие аруза в теории и практике персидско-таджикской поэзии. Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Душанбе, 1997; Солеҳов М. Аруз ва омӯзиши он. – Душанбе, 2005; Наджибуллоҳи А. Аруз и соотношение метра и содержания в персидско-таджикской поэзии. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 2016; Абдусатторов А. Становление и развитие рубаи в персидско-таджикской литературе. XVII-XIX вв. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Душанбе. 1990. – 23 с.; Нуров Н. Поэтикаи ғазалиёти Мирзо Абдулқодири Бедил. АДН. – Душанбе: 2019. – 418 с.

<sup>5</sup> Султонов И. Навоийнинг “Мезон ул-авзон”и ва унинг критик тексти. Филол. фан. номз. ... дисс. – Т., 1947; Ҳоҷиаҳмедов А. Аруз назарияси асослари. – Т., 1982; Ҳоҷиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Т.: Шарқ, 1998; Ҳоҷиаҳмедов А. Навоий арузи нафосати. – Т., Фан, 2006; Шомухамедов Ш.М. Форс-тоҷик арузи. – Т.: ТошДУ, 1970; Тўйчиев У. Ўзбек поэзиясида аруз системаси. – Тошкент: “Фан”, 1985; Тўйчиев У. Арузшуносликка доир. – Т.: Фан, 1973; Ҳасанов С. Бобурнинг “Аруз рисоласи” асари. – Т., Фан, 1981; Мирзаев С. Навоий арузи. Филол. фан. номз. ... дисс. – Т., 1948; Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. X-XIX асрлар. – Тошкент: Ўзбекистон, 1993; Ҳаққулов И. Ўзбек адабиётида рубоий (жанрнинг поэтикаси ва тарихи). – Т.: Фан, 1981; Саъдиев С. Адабиёти тоҷик дар асри XVII. – Душанбе: Дониш, 1985. – 268 с.; Саъдиев С. Поэтикаи ашъори шоирони Мовароуннахр. – Душанбе: Дониш, 1980. – 136 с.; Саъдиев С. Малехои Самарқандӣ ва тазкираи ӯ. – Самарқанд, 1999. – 98 с.; Ҳодизода Р., Каримов У., Саъдиев С. Адабиёти тоҷик (Асрҳои XVI-XIX ва ибтидои асри XX). – Душанбе: Маориф, 1988. – С. 416; Ҳамроев Ҷ. Таърихи танқиди адабӣ. – Душанбе: Ирфон, 2006. – 435 с.; Ҳамроев Ҷ. Нақди Юнони қадим ва шеъри форсии тоҷикӣ. – Самарқанд, 2001. – 180 с.; Ҳамроев Ҷ, Эмомалӣ С. Назарияи адабиёт. – Душанбе: МДМТ, 2020. – 312 с.; Болтабоев Ҳ. “Рисолаи аруз” ва аруз ҳақида / Мумтоз сўз кадри. – Т.: Адабиёт ва санъат, 2004; Хўчақулов С. Адабиёти давраи бедории миллии тоҷик (Нимаи дуюми асри XIX ва ибтидои асри XX). – Тошкент: Миллий энциклопедия, 2015. – 385 с.; Хўчақулов С. Таҳаввули жанрҳои лирикӣ дар адабиёти нимаи дувуми асри XIX ва ибтидои асри XX. – Самарқанд: СамДУ, 2021. – 188 с.; Хўжақулов С. XIX асрнинг иккинчи ярми ва XX аср бошлари тоҷик адабиётида лирик жанрларнинг тадрижий такомил тамойиллари (анъана ва новаторлик). Филология фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Самарқанд, 2022. – 75 б.; Тўйчиева Г.У. Ислом даври шеърятда аруз тизими ва унинг эволюцион тараққиёти. Филол. фан. докт. (DSc) дисс... – Т., 2018; Юсупова Д. Темурийлар давридаги арузга доир рисолаларнинг қиёсий таҳлили. Филология фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2019; Юсупова Д. Сайфий Бухорийнинг “Арузи Сайфий” асари шеършуносликка доир муҳим қўлланма // Шарқшунослик. – Тошкент, 2015. – № 2-3.; Юсупова Д. Абдурахмон Ҷомийнинг “Рисолаи аруз” асари шеършуносликка доир муҳим манба сифатида / Абдурахмон Ҷомийнинг ижод олами. – Тошкент: TAMADDUN, 2014.; Юсупова Д. Ҷомий ва Навоий: арузга доир рисолаларнинг қиёсий таҳқиқи / Ўзбек филологиясининг долзарб муаммолари (илмий мақолалар тўплами). – Тошкент, 2010. – Б. 33-38.; Юсупова Д. Ҳенри Блочман – Шарқ мумтоз поэтикаси тадқиқотчиси / Буюк ипак йўлида умуминсоний ва миллий кадриятлар: тил, таълим ва маданият (халқаро илмий-амалий конференция материаллари). – Самарқанд-Шанхай, 2016. – Б. 275-279.

Garchi bu tadqiqotlar o'rganilayotgan davr adabiyotining umumiy manzarasini o'zida aks ettirgan bo'lsa-da, XVI-XIX asrlarda aruzshunoslikning shakllanish va rivojlanish tamoyillari, yo'nalishlari, nazariy usullari to'g'risida keng qamrovli va fundamental tadqiqot tarzida har tomonlama ilmiy ma'lumot bera olmaydi. Binobarin, dissertatsiyaning oldingi tadqiqotlardan farqi davr aruzshunosligining rivojlanish tendensiyalari va o'sish masalalarini yoritishda, davr aruzshunoslarining qarashlari evolyutsiyasini o'rganishda namoyon bo'ladi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Tojik adabiyotida adabiy janrlar va ijodiy uslublar rang-barangligi" mavzusidagi tadqiqot doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** XVI-XIX asrlarda yaratilgan risolalar tahlili asosida fors-tojik aruzshunosligining shakllanish va rivojlanish tamoyillarini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

fors-tojik aruzshunosligining paydo bo'lish davridan tortib o'rganilayotgan asrlargacha bo'lgan bosqichma-bosqich taraqqiyot va o'sish yo'llarini tadqiq etish hamda arab va ajam aruzshunosligi o'rtasidagi farqli tomonlarini ochib berish;

XVI-XIX asrlar aruzshunosligiga asos bo'lgan nazariy manbalarni qiyosiy o'rganish va komparativistik tahlil orqali davr aruziy risolalaridagi an'anaviylik va yangilik masalalarini aniqlash;

davr risolalari materiallari asosida aruzning kichik birliklari – juzv, rukn va zihof nazariyasining qiyosiy-tarixiy izohi va tavsifini ishlab chiqish;

muhokama qilinayotgan davr risolalari asosida fors-tojik aruz nazariyasida ilal istilohining mavjudligini aniqlash va uning zihofdan farqini aruzshunoslik nuqtayi nazaridan asoslash;

XVI-XIX asrlarda bahrlarning shakllanish va rivojlanish evolyutsiyasi, bahrlarning turli xil solim va muzohaf tarmoq vaznlarining mumtoz fors-tojik she'riyatida evrilishi, doiralar tasnifini o'rganish va bu masalalar yuzasidan davr mualliflari qarashlarining ahamiyatini yoritish;

davr aruzshunosligida ruboiy vaznning rivojlanish tamoyillarini o'rganish va fors-tojik aruzshunoslarining qarashlarini solishtirib, ularning bu masalaga doir yangicha yondashuvlarini asoslashdan iborat.

**Tadqiqotning obyekt**i sifatida XVI-XIX asrlar fors-tojik aruzshunosligining shakllanishi va rivojlanishida muhim o'rin tutgan G'iyosiddin Mansur Dashtakiyning "Risolayi aruz va qofiya", Xoja Hasan Nisoriyning "Chahor gulzor" Muhammad G'iyosiddinning "Me'roj ul-aruz", Sa'dulloh Murodobodyning "Risolayi ruboiy" va noma'lum muallifning "Muntaxab ul-aruz" asarlari tanlandi.

**Tadqiqotning predmet**ini XVI-XIX asrlar fors-tojik aruzshunosligining shakllanish va rivojlanish tamoyillari, mazkur davrda yaratilgan aruzga oid risolalarning nazariy jihatlarini tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, tavsifiy, tasniflash, matn tahlili, statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

XVI-XIX asrlar aruzshunosligi fors-tojik aruz ilmining evolyutsion bosqichi sifatida baholangan hamda ushbu davr aruziy risolalarida istiqbolli, istiqbolsiz, musta'mal (amaldagi) va matruk (eski) vaznlarni saralash kabi yangi g'oyalarning ilgari surilganligi juzv, rukn, zihof, bahr, doira va boshqa aruziy birliklar tadqiqi asosida aniqlangan;

“Chahor gulzor”, “Risolayi aruz va qofiya”, “Me'roj ul-aruz”, “Muntaxab ul-aruz” risolalarida arab va fors aruzshunoslari qarashlaridagi juzv masalasi qiyoslanib, “*sabab*”, “*vata*” va “*fosila*” juzvlarining ikki xalq aruzida fonetik nuqtayi nazardan teng qo'llanilganligi isbotlangan;

XVI-XIX asrlar risolalarida “*zihof*” va “*ilal*” masalalari oldingi davr risolalaridan farqli ravishda alohida aruziy birliklar sifatida talqin etilganligi, davr aruzshunosi Muhammad G'iyosiddin zihoflar sonini o'tgan davr mualliflariga qaraganda ko'proq (47 ta) ko'rsatganligi, aynan shu olim mumtoz aruzshunosligida ilk marotaba “*ilal*” istilohini olib kirganligi asoslangan;

XVI-XIX asrlar aruzshunosligini o'rganish asnosida arab she'riyatiga xos Tabil, Madid, Basit, Vofir, Komil bahrlarining o'sha davr fors she'riyati amaliyotida qo'llanilmaganligi, Jadid, Qarib, Mushokil bahrlarining kamiste'molligi, Hazaj, Rajaz, Ramal, Munsarih, Muzori', Muqtazab, Mujtas, Sari', Xafif, Mutaqorib, Mutadorik bahrlarining davr she'riyatida nisbatan ko'p qo'llanilganligi dalillangan;

G'iyosiddin Mansur Dashtakiyning doira tuzishda Nasiriddin Tusiya ergashganligi, Xoja Hasan Nisoriyning aruz ilmini o'zlashtirishning oson usullarini targ'ib qilish zamirida doira masalasini e'tiborga olmaganligi, Muhammad G'iyosiddinning doira tuzishda o'tgan davr aruzshunoslari tajribalarini umumlashtirib, fors-tojik aruzshunosligi tarixida doiralar sonini oltitaga yetkazganligi aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

XVI-XIX asrlar aruziga oid risolalarning nazariy asoslari va adabiy manbalari aniqlangan;

XVI-XIX asrlar aruzshunosligining shakllanish va rivojlanish omillari X-XV asrlar aruzshunosligi bilan qiyosiy tahlil orqali asoslangan;

davr risolalarining tipologik tadqiqi natijasida juzv, rukn, zihof, bahr, doira va boshqa aruz vazni birliklari haqida har bir muallif nuqtayi nazarining farqli va o'ziga xos yutuqlari dalillangan;

mazkur davr aruzshunosligi keyingi davr aruzshunosligining rivojlanishida muhim omil sifatida xizmat qilganligi, hozirgi zamonaviy aruzshunoslik fani uchun muhim o'quv materiallari taqdim eta olishi isbotlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** o'rganilayotgan davr aruzshunosligi haqida fikr-mulohazalarimizni asoslash maqsadida mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar fikrlarini dalil keltirilganligi, XVI-XIX asrlar fors-tojik aruzshunosligining shakllanish va rivojlanish tamoyillarini aniqlash uchun G'iyosiddin Mansur Dashtakiyning “Risolayi aruz va qofiya” (Eron nashri) Xoja Hasan Nisoriyning “Chahor gulzor”, Muhammad G'iyosiddinning “Me'roj ul-aruz”, noma'lum muallifning “Muntaxab ul-aruz”, Sa'dulloh Murodobodyning “Risolayi ruboiy” (Tojikiston nashrlari) asarlarining sahif nusxalariga murojaat qilinganligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi xulosalardan XVI-XIX asrlar fors tojik shoirlari she'riyati poetikasi, davr adabiy ilmlarining rivojlanish holati, davr adabiy jarayonlari, davr ijodkorlarining hayoti va faoliyatini keng doirada o'rganishga, aruz ilmining nazariy xususiyatlarini tadqiq etishga, mumtoz va zamonaviy aruzning rivojlanish bosqichlarini o'rganishga, fors-tojik she'riyati aruzining o'zbek she'riyati va boshqa qardosh xalqlar she'riyati aruzi bilan qiyosiy o'rganishga qaratilgan tadqiqot ishlarida, monografiya, ilmiy risola va maqolalarda istifoda etilishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiya xulosalari va tavsiyalaridan "Tojik mumtoz adabiyoti tarixi", "Adabiyot nazariyasi", "Tojik adabiy tanqidchilik tarixi", "Aruzshunoslik muammolari", "Uslubshunoslik", "Nazmshunoslik", "Tasavvuf va mumtoz poetika asoslari", "Adabiyotshunoslik tarixi" fanlari mazmunini nazariy xulosalar bilan takomillashtirishda, mazkur fanlardan darslik va o'quv qo'llanmalar yaratish, ma'ruza va seminar mashg'ulotlari mazmunini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** XVI-XIX asrlar fors-tojik aruzshunosligining shakllanish va rivojlanish tamoyillarini tadqiq etishdan olingan ilmiy natijalar asosida:

XVI-XIX asrlar aruzshunosligini o'rganish asnosida arab she'riyatiga xos Tavil, Madid, Basit, Vofir, Komil bahrlarining o'sha davr fors she'riyati amaliyotida qo'llanilmaganligi, Jadid, Qarib, Mushokil bahrlarining kamiste'molligi, Hazaj, Rajaz, Ramal, Munsarih, Muzori', Muqtazab, Mujtas, Sari', Xafif, Mutaqorib, Mutadorik bahrlarining davr she'riyatida nisbatan ko'p qo'llanilishi dalillanganligi to'g'risidagi yangiliklardan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutida 2017-2020-yillarda bajarilgan FA-F1-OO5-raqamli "Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish" mavzusidagi fundamental loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutining 2025-yil 4-apreldagi 191/1-son ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo'llanishi orqali fundamental loyiha doirasida tayyorlangan ilmiy maqolalar hamda monografiyalar ilmiy saviyasini oshirishda xizmat qilgan;

G'iyosiddin Mansur Dashtakiyning doira tuzishda Nasiriddin Tusiya ergashganligi, Xoja Hasan Nisoriyning aruz ilmini o'zlashtirishning oson usullarini targ'ib qilish zamirida doira masalasini e'tiborga olmaganligi, Muhammad G'iyosiddinning doira tuzishda o'tgan davr aruzshunoslari tajribalarini umumlashtirib, fors-tojik aruzshunosligi tarixida doiralar sonini oltitaga yetkazganligi aniqlangan ilmiy yangiliklaridan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-2023-yillarga mo'ljallangan ПФ-201912258-raqamli "O'zbek adabiyotining ko'p tilli (o'zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan. (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 8-apreldagi 01/04-1310-son ma'lumotnomasi). Natijada

loyihaning ilmiy-nazariy konsepsiyasi yangi fikr-mulohazalar bilan boyishiga erishilgan;

“Chahor gulzor”, “Risolayi aruz va qofiya”, “Me’roj ul-aruz”, “Muntaxab ul-aruz” risolalarida arab va fors aruzshunoslari qarashlaridagi juzv masalasi qiyoslanib, “*sabab*”, “*vataad*” va “*fosila*” juzvlarining ikki xalq aruzida fonetik nuqtayi nazardan teng qo‘llanilganligi isbotlangan ilmiy yangiliklaridan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2023-2024-yillarda amalga oshirilgan AL-662205561 raqamli “Alisher Navoiy mualliflik korpusini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan. (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 8-apreldagi 01/04-1307-son ma’lumotnomasi). Natijada fors-tojik aruzshunosligiga bag‘ishlangan “Me’roj ul-aruz” asari hamda Alisher Navoiyning o‘zbek aruzshunosligiga bag‘ishlangan “Mezon ul-avzon” asarlarining zihof masalasiga oid uyg‘un jihatlari aniqlangan;

XVI-XIX asrlar aruzshunosligi fors-tojik aruz ilmining evolyutsion bosqichi sifatida baholangan hamda ushbu davr aruziy risolalarida istiqbolli, istiqbolsiz, musta’mal (amaldagi) va matruk (eski) vaznlarni saralash kabi yangi g‘oyalarning ilgari surilganligi *juzv*, *rukn*, *zihof*, *bahr*, *doira* va boshqa aruziy birliklar tadqiqi asosida aniqlangan ilmiy yangiliklaridan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi she’riyat va adabiy tanqid kengashlari hisoboti yig‘ilishlarida, shuningdek, Samarqand viloyat bo‘limi qoshida faoliyat yuritayotgan “Sadoqat” to‘garagi faoliyatida va adabiy kechalarda, ijodkor yoshlar bilan uchrashuvlarda, ijodkor yoshlar bilan bo‘lgan amaliy, onlayn seminarlarda foydalanildi. (O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2025-yil 17-apreldagi 01-03/162-son ma’lumotnomasi). Natijada O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasida tashkil etilgan yosh shoir va olimlar bilan uchrashuvlarda mazkur tadqiqotda o‘rganilgan she’r vazni haqida bahs yuritadigan bir qator nazariy manbalarning mazmun-mohiyati, bugungi davr ijod ahli uchun muhim dasturulamal sifatida xizmat qilishi mumkinligi muhokama etilgan;

tadqiqotda she’riy vaznlarda kuzatilgan fonetik hodisalar, qo‘llanilgan atamalarning izohlari, unda ishlatilgan fors hamda tojik tillaridagi murakkab so‘zlar matnda bigramma va trigrammalarning uchrashish ehtimolini hisoblashda asos bo‘lib xizmat qilganligi haqidagi xulosala va natijalardan O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi 93461-sonli harbiy qismda harbiy maqsadlar uchun ishlab chiqilgan ovoz, audio va video ma’lumotlarni matn ko‘rinishiga o‘tkazish hamda tahrirlash jarayonini avtomatlashtirishga mo‘ljallangan “Ovoz AI” dasturiy ta’minotini yaratishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi 93461-sonli harbiy qismning 2025-yil 17-apreldagi 229-son ma’lumotnomasi). Natijada tadqiqotda fors adabiyoti bilan bog‘liq manbalar tarkibidagi forscha atamalarning izohlaridan harbiy bo‘linmalar uchun lug‘atlarni tayyorlash hamda murakkab forscha so‘zlarni sharhlash imkoniyati yaratilgan;

dissertatsiya muallifi tomonidan yaratilgan “Таърихи адабиёти мумтози тоҷик” (ISBN 978-9910-9763-4-6) nomli o‘quv qo‘llanmasida tadqiqot natijalaridan, undagi mavjud xulosa va yangiliklardan foydalanilgan. (Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining 2023-yil 28-sentabrdagi 2-

son yig'ilish bayonnomasi). Mazkur o'quv qo'llanmada fors-tojik she'riyatining vujudga kelish ildizlari, birinchi forscha she'r, uning muallifi, yaratilgan davri, qanday vaznda aytilganligi, Bahrom Go'r va Abuhafs Sug'diyning she'rlari fors-tojik she'riyatining ilk namunalari ekanligi, ularni asoslashda "Lubob ul-albob" va "Al-mu'jam" kabi ilmiy-nazariy manbalarning o'rni beqiyosligi haqidagi mavzu va masalalarni talabalarga atroflicha yoritib berishda tadqiqotda ilgari surilgan qarashlar va she'riy namunalarning tahlillari (o'quv qo'llanmaning 172-173 betlari) yangi o'quv materiali sifatida xizmat qilgan;

XVI-XIX asrlarda yashagan fors-tojik xalqining madaniy hayoti, mazkur asrlarda Movarounnahr va Xuroson zaminlarida she'riyatning rivojlanishi, bu davrda poetika ilmining rivojida Xoja Hasan Nisoriyning "Chahor gulzor", G'iyosiddin Dashtakiyning "Risolayi aruz va qofiya", Muhammad G'iyosiddinning "Me'roj ul-aruz" asarlari katta hissa qo'shganligi haqidagi ilmiy xulosalaridan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining "O'zbekiston" teleradiokanali "Rangin kamon" teleko'rsatuvi senariyalarini yozishda foydalanilgan. (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali"ning 2025-yil 2-apreldagi 05-09-411-son ma'lumotnomasi). Natijada teleko'rsatuv tomoshabinlariga XVI-XIX asrlar bilan bog'liq bir qator manbalar mavjudligi, ularning davr ilmiy va madaniy hayotini o'zida aks ettirishi haqida muhim ma'lumotlar yetkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 3 ta Respublika ilmiy konferensiyalarida aprobatsiyadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 22 ta ilmiy ish nashr etilgan, shulardan 1 ta monografiya va O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta maqola (10 tasi Respublika hamda 3 tasi xorijiy jurnallarda), 8 ta ilmiy axborot va ma'ruza tezislari nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi.** Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, ishning umumiy hajmi 273 sahifani tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi, zarurati, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, fan va texnologiyalar rivojining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi asoslanib, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi, e'lon qilingan ishlar va tadqiqot tuzilishi ko'rsatilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**XVI-XIX asrlar fors-tojik aruzshunosligining nazariy asoslari**" deb nomlanib, uning "*Fors-tojik aruzshunosligining tadrijiy taraqqiyoti*" nomli ilk faslida fors-tojik aruzshunosligining paydo bo'lish, shakllanish va rivojlanish masalalari X-XV asrlar aruzshunoslari faoliyati asosida o'rganilgan. Shuningdek, mazkur faslda arab aruzi

bilan ajam aruzining mushtarak va farqli jihatlarini qiyoslanib, bir qator misol va dalillar orqali fors-tojik aruzining o'ziga xos tadrijiy takomili yoritilgan.

Taniqli aruzshunos olim Urvatullo Toirovning fikricha, fors-tojik she'riyatining rivojlanish tarixida aruz she'riy vazn tizimi sifatida uch bosqichni bosib o'tgan: 1) IX asrning ikkinchi yarmi – fors-tojik she'riyatida aruzning boshlanishi; 2) X-XI asrlarda fors-tojik she'riyatida aruzning mavqei mustahkamlandi, she'r vazni o'tgan asrlarga qaraganda yoqimliroq bo'ldi, lekin o'sha davrlarda ham ayrim nomaqbul vaznlar qo'llanilib, keyinchalik fors-tojik she'riyati poetikasidan chiqib ketdi; 3) XII asrdan to hozirgi kungacha. Nisbatan uzoq davom etgan bu davrda she'r ham ma'no, ham tuzilishi jihatidan ancha yaxshilandi. Tojik adabiy tili rivojlanishda davom etdi, she'riy vaznlar ham uning lisoniy xususiyatlariga moslashib, tabiiy va yoqimli tus oldi. Aruz qoidalari va usullari takomillashtirildi, yangi vaznlar kashf qilindi. Ba'zi fors-tojik aruzshunoslari, masalan, Bahrom Saraxsiy, Buzurgmehr Qoyiniy va boshqalar *mafoiylun* (V – – –), *foilotun* ( – V – –), *foi-lo-tun* ( – V – –), *mustaf'ilun* ( – – V –), *mus-taf'i-lun* ( – – V –) va *maf'ulotu* ( – – – V) solim ruknlarini aralashtirib, quyidagi yangi fors-tojik aruzi bahrlarini yaratganlar: Sarim, Kabir, Badil, Hamid, Sag'ir, Asam(m), Salim, Hamim, Masnu', Musta'mal, Axras, Mubham, Ma'ko's, Muhmal, Qote', Mushtarak, Muammam, Musattar, Muayyan, Bois, Aziz, Amiq<sup>6</sup>.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ma'lum bo'ladiki, fors-tojik aruzi mumtoz she'riyati bilan birga asta-sekin o'ziga xos shakllanish va rivojlanish yo'lini bosib o'tgan. Ta'kidlash joizki, hozirgi tojik adabiyotshunosligida fors-tojik aruzshunosligi faqat XIII asrda ikki buyuk aruzshunos – Shams Qays Roziy va Nasiriddin Tusiy faoliyati bilan shakllangan degan fikr tobora kuchayib bormoqda. Bu fikr ana shu nazariyotchilarning “Al-mu'jam” va “Me'yor ul-ash'or” nazariy asarlari mavjudligi bilan shakllangan va asoslantirilgan. Darhaqiqat, “Al-mu'jam” o'zida ajam aruzi taraqqiyotining cho'qqisini aks ettiradi. Ammo fors-tojik aruzshunosligining boshlanishi va shakllanishi XIII asrga to'g'ri kelmaydi, balki undan oldinroq, bizningcha, X-XI asrlarga borib taqaladi. Zero, fors-tojik she'riyati hatto bu asrlardan oldin, ya'ni Rudakiy (858-941), Firdavsiy (934-1020) kabi buyuk adiblar ijodi misolida o'z vazni, uslubi va mukammal yo'nalishiga ega edi. Shuning uchun, she'riyatning muhim nazariy masalalariga bag'ishlangan risolalar yaratish ham ancha oldin boshlangan.

Shunday qilib, fors-tojik aruzshunosligining shakllanish va rivojlanishida ikki guruh olimlarining qo'shgan hissalarini tarixiy ahamiyatga ega. Birinchi guruhga quyidagi aruzshunoslar kiradiki, ularning asarlari bizgacha yetib kelgan bo'lib, bugungi davr o'quvchilari ularning ta'limotlaridan yaqindan tanishganlar. Bu guruhga Muhammad Umar Roduyoniy, Rashididdin Vatvot, Shams Qays Roziy, Nasiriddin Tusiy, Shams Faxriy Isfahoniy, Vahid Tabriziy, Abdurahmon Jomiy, Sayfiy Buxoriy, Atulloh Mahmud Husayniy va boshqalar kiradi. Ikkinchi guruhda fors-tojik aruzining shakllanishi va rivojlanishiga hissa qo'shgan bir qancha aruzshunoslarning nomlarini aytib o'tishimiz mumkin, lekin afsuski, ularning asarlari ancha oldin yo'qolgan, hozirda ularning ayrim qarashlari boshqa mavjud

<sup>6</sup> Тоиров Урватулло. Фарҳанги истилоҳоти арӯзи Аҷам. – Душанбе: Маориф, 1991. – С.17.

manbalar orqali bizgacha yetib kelgan. Bu guruhga davr nuqtayi nazaridan X-XIII asrlar fors-tojik aruzshunoslari: Bahrom Saraxsiy, Buzurgmehr Qoyiniy, Abulalo Shushtariy, Yusuf Aruziy Nishopuriy, Imom Hasan Qatton, Salmon Sovajiy va boshqa aruzshunoslar kiradi. Yuqorida ismi zikr etilgan aruzshunoslarni bitta muhim g'oya, ya'ni arab aruziga xos tayyor qolip va modellarni ajam aruziga qabul qilish emas, balki davr she'riyati vazni asosida aniq bir nazariy sistemalarni ishlab chiqish hamda ajam aruzini mushaxxaslash kerak degan g'oya o'z atrofida jamlagan edi.

Fors-tojik aruzining shakllanishi va rivojlanishi arab aruzida mavjud bo'lmagan ba'zi yangi bahr va doiralarning kashf etilishida yaqqol namoyon bo'ladi. Yangi bahr va doiralar bevosita fors-tojik she'riyatining fonetik va ritmik xususiyatlarini o'zida mujassam etgan. Bu masalada dalil keltirildiki, fors-tojik aruzshunoslari Bahrom Saraxsiy va Buzurgmehr Qoyiniylar fors-tojik aruzi tabiatiga xos uchta yangi doira – Mung'alata, Munaliqa va Munakisani tuzgan bo'lib, ular tarkibidagi afoillardan yuqorida zikr etilgan yigirma bir yangi bahr paydo bo'ldi. Albatta, bu yangi bahr va doiralar shuni ko'rsatadiki, fors-tojik aruzshunoslari arab aruzi qolibida qotib qolmasdan va Xalil ibn Ahmad nuqtayi nazari bilan cheklanib qolmasdan, balki mumtoz she'riyatning o'ziga xos poetik xususiyatlarini yangi fors-tojik aruzi nizomida mujassamlashtirganlar.

*“XVI-XIX asrlar aruzshunosligi uchun asos bo'lgan nazariy manbalar tadqiqi”* deb nomlangan ikkinchi faslda o'rganilayotgan davrda yaratilgan aruz ilmiga doir risolalarning nazariy manbalari tadqiq etilgan. XVI-XIX asrlar fors-tojik aruzshunosligining shakllanish va rivojlanish jarayoni adabiyotshunoslikda hali o'rganilmaganligi bois bu davr aruziy risolalarining nazariy manbalarini o'rganish masalasi ham dolzarb hisoblanadi.

Mazkur asrlarda yaratilgan va tadqiqotimiz obykti sifatida tanlangan G'iyosiddin Mansur Dashtakiyning “Risolayi aruz va qofiya”, Xoja Hasan Nisoriyning “Chahor gulzor”, Muhammad G'iyosiddinning “Me'roj ul-aruz”, Sa'dulloh Murodobodyyning “Risolayi ruboiy” va muallifi noma'lum bo'lgan “Muntaxab ul-aruz” asarlarining nazariy manbalarini o'rganishdan ma'lum bo'ldiki, bu asarlar ko'proq X-XV asrlarda yaratilgan ilmiy-nazariy va adabiy manbalar ta'sirida yaratilgan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, davr risolalarining adabiy manbalarini o'rganish xronologiyasi ularning yaratilish davri nuqtayi nazaridan izchillik bilan amalga oshirildi. O'rganilayotgan davr risolalarining nazariy manbalarini aniqlash turli tadqiqot usullari asosida amalga oshirildi. Mazkur davrning ayrim asarlarida, masalan, “Risolayi aruz va qofiya”, “Me'roj ul-aruz”, “Risolayi ruboiy”da mualliflar qaysi manbalarga tayanganliklarini mavridida zikr etganlar. Tadqiqotda bu dalillar mualliflarning o'z so'zlaridan keltirildi va asoslandi. Ayrim mualliflar (Xoja Hasan Nisoriy “Chahor gulzor”da, “Muntaxab ul-aruz” muallifi) o'z asarlarida manbalar nomini zikr etmaydilar. Bu o'rinda manbalar o'zaro qiyoslash, misol va dalillar keltirish orqali aniqlandi.

Izlanishlar va muqoisalar shuni ko'rsatdiki, Shams Qays Roziyning “Al-mu'jam”, Nasiriddin Tusiyning “Me'yor ul-ash'or”, Abdurahmon Jomiyning “Risolayi aruz”, Sayfiy Buxoriyning “Aruzi Sayfiy”, Vahid Tabriziyning “Jam'i muxtasar” nomli asarlari davr aruziy risolalariga nazariy manba sifatida xizmat qilgan. Shuningdek, ba'zi hollarda davr aruzshunoslari boshqa bir qator asarlarga

yuzlanib, mavridida ulardan ham foydalanganlar. Bu toifadagi manbalarga Abunabr Forobiyning “Kitob al-musiqiy al-kabir”, Muhammad ibn Umar Roduyoniyning “Tarjumon ul-balog‘a”, Rashiddin Vatvotning “Hadoyiq us-sehr”, Muhammad Avfiy Buxoriyning “Lubob ul-albob”, Ziyouddin Xazrajiyning “Minhoj ul-aruz”, Salmon Sovajiyning “Risola”, Muhammad Ibnulqaysning “Hadoyiq ul-balog‘at”, “Hadoyiq ul-ajam”, Sharafiddin Aliy Yazdiyning “Hulali mutarraz dar fanni muammo va lug‘z”, Atoulloh Mahmud Husayniyning “Badoyi’ us-sanoyi’” nomli asarlarini zikr etish mumkin.

Davr aruzshunosligining manbalarini o‘rganishdan oydinlashdiki, XVI-XIX asrlar aruzshunosligida yaratilgan hech bir asar alohida manba ta’sirida yaratilmagan. Har bir asar turli asrlar manbalari ta’sirida yaratilganligi tadqiqotda asoslandi. Xulosa qilish mumkinki, o‘rganilayotgan davr risolalari oldingi asrlar manbalari soyasida qolmasdan, balki ularning har biri aruz ilmining muhim masalalarini talqin qilishda o‘ziga xos yangi yondashuvlar namunasi sifatida namoyon bo‘lgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**XVI asrda yaratilgan risolalarning ilmiy tahlili**” deb nomlangan bo‘lib, uch fasldan tashkil topgan. Bobning “*G‘iyosiddin Mansur Dashtakiyning “Risolayi aruz va qofiya” asarida aruz masalalari*” nomli ilk faslida XVI asr fors-tojik aruzshunosligida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan, ammo zamonaviy adabiyotshunoslikda haligacha o‘rganilmagan Sheroz falsafiy-adabiy maktabi vakili G‘iyosiddin Mansur Dashtakiyning “Risolayi aruz va qofiya” nomli asari o‘rganilgan.

Risolaning yaratilish tarixi haqida aniq ma’lumotlar qo‘lga kiritilmagan. Biroq G‘iyosiddin Dashtakiyning tarjimai holidan kelib chiqib, asarning yaratilgan davrini taxmin qilish mumkin. “Risolayi aruz va qofiya” muallif hayotining so‘nggi o‘n yilligida, ya’ni 1532-1542 yillar oralig‘ida yozilgan bo‘lishi kerak. Chunki muallif bu yillarda Tahmosp Safaviy saroyi xizmatini tark etib, umrining qolgan qismini ilmiy asarlar yozish bilan o‘tkazgan va boshqa asarlari qatorida bu risolani ham yaratgan. “Risolayi aruz va qofiya” asari eronlik adabiyotshunoslar Abdulloh Nuroniy va Pidrom Mirzoiy tomonidan hijriy 1375 (milodiy 1997) yilda Tehrondagi “Farhangistoni zabon va adabi forsi” nashriyotida 1500 nusxada fors tilida nashr etilgan.

“Risolayi aruz va qofiya” asari hajm jihatidan kichik bo‘lib, kirish va ikki maqoladan (muallif bobni “maqola” deb ataydi) iborat. Birinchi bobda aruz ilmi, ikkinchi bobda qofiya ilmi haqida so‘z yuritilgan. Risola mundarijasidan ma’lum bo‘ladiki, muallif o‘z zamondoshlari va o‘tgan davr mualliflarining risola yozish an’analarini nisbatan davom ettirishga harakat qilgan.

G‘iyosiddin Dashtakiy aruz ilmining kichik unsurlarini qisqacha sharhlagandan so‘ng, rukn masalasiga diqqat qaratadi va bu aruziy birlikning tasnifi va turlari haqida nisbatan kengroq to‘xtaladi. Ma’lumki, **rukni** vaznning boshlang‘ich birliklaridan, ya’ni sabab, vatad va fosila juzvlarining birikishidan paydo bo‘ladi. She’rni taqti’lash va uning vaznini tahlil qilish jarayonida rukn muhim aruziy birlik sifatida asosiy masalaga aylanadi. G‘iyosiddin Dashtakiy ruknlar tarkibini juzvlar yig‘indisi sifatida baholaydi. Muallif mumtoz fors-tojik she’riyati ruknlarining soni va nomlariga to‘xtalib, ularni quyidagicha tasniflagan: “Va mashhur afoillar

aruziylar nazdida sakkizta: olti saboiy va ikki xamosiy. Saboiylar: mustaf'ilun, mafoiylun, foilotun, mutafoilun, mafoilatun, maf'ulotu hisoblanadi. Va xamosiylar: faulun va foilun hisoblanadi"<sup>7</sup>. Muallif tasnifiga ko'ra, aruzshunoslar sakkizta asosiy va mashhur ruknlarni e'tirof etishgan va ular tarkib jihatidan ikki guruh saboiy (yettilik) va xamosiy (beshlik)ga bo'linadi.

G'iyosiddin Dashtakiy bahrlarni tasniflashda ham, ularning arkoni va avzonini tanishtirish jarayonida ham, aruz doiralarini shakllantirishda ham ajam aruziga xos quyidagi uchta bahr: Qarib, Jadid va Mushokilni tilga olmagan. Bu qarorga bir tomondan muallif ergashgan mashur aruzshunos Nasiriddin Tusiy g'oyalari ta'sir qilgan degan fikrni ilgari sursak, ikkinchi tomondan, mazkur jarayonni G'iyosiddin Dashtakiyning o'z shaxsiy yondashuvi sifatida baholash ham mumkin. Chunki XVI asrda aruz ilmining shakllanish tamoyili va bu davr she'riyatining poetik manzarasi shunday qarashni taqozo etgan. Muallif davri she'riyati amaliyotida yuqorida tilga olingan bahrlarning adiblar nazaridan chetda qolib borayotganligi Kamoliddin Binoiy, Badriddin Hiloliy, Zayniddin Mahmud Vosifiy, Abdurahmon Mushfiqiy va boshqa o'nlab davrning mashhur shoirlari she'riyatini o'rganishda yaqqol ko'rinadi. Bu jihatlar G'iyosiddin Dashtakiyning mazkur bahrlar bilan bog'liq o'ziga xos yondashuvlarini amalda tasdiqlaydi.

“Risolayi aruz va qofiya”ning muhim bir jihati shundaki, muallif xuddi Nasiriddin Tusiy kabi arab va fors aruzining ko'p qirralarini qiyoslab, ularni o'zaro bog'liqlikda o'rgangan. U asosan arab olimlarining risolalaridan ta'sirlangan va o'z fikrlarini tasdiqlash uchun ulardan dalillar keltirgan. Risolada fors-tojik shoirlari qatorida arab shoirlari she'riyatidan ham she'riy namunalar kuzatiladi. Ta'kidlash joizki, bunday yondashuv va tadqiq usuli boshqa XVI-XIX asrlarda yaratilgan aruziy risolalarda kuzatilmaydi.

Bobning “*Xoja Hasan Nisoriyning “Chahor gulzor” asarida mumtoz poetikaga doir qarashlar*” nomli ikkinchi faslida XVI asr Buxoro adabiy muhitida o'z o'rniga ega bo'lgan Xoja Hasan Nisoriyning “Chahor gulzor” nomli ilmiy-nazariy asari o'rganilib, undagi mumtoz poetikaga doir qarashlar ilk marotaba tadqiq etilgan.

Nisoriyning “Chahor gulzor” (“To'rt gulzor”) asari 1560 yilda yaratilgan va bizgacha to'liq holda yetib kelgan. Mazkur asar ilk bor 1998 yilda asl qo'lyozma nusxalari asosida tilshunos olim Davlatbek Xojayev tomonidan Dushanbe shahrida nashr etilgan. Aruzshunos olim Urvatullo Toirov va uning hamkasblari sa'y-harakati bilan 2014 yilda Mahdiy Hamidiyning “Aruzi Hamidiy”, Muhammad G'iyosiddinning “Me'roj ul-aruz” va “Chahor gulzor”ning aruz ilmiga bag'ishlangan uchinchi fasli “Aruzi Nisoriy” nomi bilan bitta to'plamda nashr etilgan. To'plam shu uch asarni o'z ichiga olgani uchun “Se risolayi aruz”<sup>8</sup> (“Aruzning uch risolasi”) deb nomlangan. “Chahor gulzor”ning uchinchi gulzori alohida shaklda aruz ilmiga bag'ishlangan mustaqil risola sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun Urvatullo Toirov uni aruz ilmiga oid mustaqil risola sifatida boshqa risolalar qatorida “Aruzi Nisoriy” nomi bilan nashr ettirdi.

---

<sup>7</sup> O'sha asar. – B. 10.

<sup>8</sup> Се рисолаи арӯз (“Арӯзи Ҳамидӣ”, “Арӯзи Нисорӣ”, “Меъроҷ-ул-арӯз”). Ба нашр тайёркунанда У. Тоиров ва дигарон. – Душанбе, 2014. – 130 с.

“Chahor gulzor” XVI asr va keyingi asrlarda ilm ahli tomonidan qo‘llanilgan eng muhim ilmiy-nazariy risolalardan biri bo‘lsa-da, u haligacha adabiyotshunoslikda o‘rganilmagan. Ayrim tadqiqotlar, darsliklar va alohida maqolalarda Nisoriyning “Chahor gulzor”i ilmiy nazariy asar sifatida tilga olingan bo‘lsa-da, uning ilmiy, ma’rifiy ahamiyati haligacha o‘rganilmagan va muallifining o‘z davri adabiy muhitidagi tutgan o‘rni to‘laligicha aniqlanmagan. Shu bois “Chahor gulzor”ni atroflicha o‘rganish va tahlil qilish zamonaviy adabiyotshunoslikda muhim va dolzarb masala sifatida qaraladi.

Nisoriy aruz ilmini o‘rganishdan oldin boshqa o‘tgan va zamondosh aruzshunoslar kabi aruz ilmining asosiy obyektini – she’r va uning ijodkori – shoir haqida o‘z qarashlarini keltirishni ma’qul ko‘rgan. Muallif she’r baytining zaruriy unsurlarini uning lug‘aviy ma’nosini ifodalovchi “bayt” (“xona”) jihozlariga o‘xshash tarzda keng yoritib bergan. Uning bu yondashuvidan quyidagi poetik struktura kelib chiqadi: uy → she’r bayti, uyning yeri → she’rning mazmuni, uyning shifti → she’rning qofiyasi, uyning ustuni va mixi → she’rning vazni, uyning gilami → she’rning so‘zlari, uyning naqshlari → she’rning badiiyati. Nisoriy nigohidan asliy va mukammal she’rda bu unsurlarning barchasi bo‘lishi shart. Ko‘rinadiki, muallif she’riyat poetikasining asosiy mezonlarini yangicha talqin usuli bilan ifodalashga harakat qilgan.

Nisoriy asliy she’r qanday bo‘lish haqidagi qarashlaridan so‘ng, uning yaratuvchisi “shoir” tushunchasiga to‘xtaladi. Jumladan, uning bu masalaga oid qarashi quyidagicha: “Bilginki, shoir lug‘atda bilimdon, donishmanddir, istilohda esa she’rning go‘zalligi va nuqsoni, afzalligi va kamchiligi, ta’bga yaqinligi va ta’bdan yiroqligi, mavzunligi va vaznsizligi, qofiyadorligi va qofiyasizligi kabi me’yorlarni biluvchi shaxsdir. Ammo kishining ta’bi mavzun bo‘lsa va aytadigan she’ri ham mavzun chiqsayu, lek o‘zi yaratgan o‘sha she’rni taqti’ qilmasa, vaznini aniqlashda qo‘li kaltalik qilsa, uni shoir demaydilar”<sup>9</sup>. Muallif “shoir” so‘zining lug‘aviy ma’nosini biluvchi, donishmand, ilm egasi deb izohlagan. Uning nuqtayi nazaridan shoir shunaqa shaxs bo‘lishi kerakki, u she’rning go‘zalligi va nuqsoni, she’rning solimligi, asliyligi va kamchiligi, she’rning ta’bga yaqinligi va ta’bdan yiroqligi, uning mavzunligi va taqti’lash qoidasi, qofiyadorligi va qofiyasizlikning noxushligi kabi muhim poetik masalalarni juda chuqur bilishi shart. Nisoriy she’riyat ilmining ustoz sifatida shoirning she’r yaratishdagi mas’uliyati va talablarini alohida ta’kidlab, uning she’riyat ilmi uchligi: aruz, qofiya va badi’ ilmlaridan yaqindan xabardor bo‘lishini muhim deb bilgan. Muallif nuqtayi nazaridan qaraganda, shoirlik mahoratiga ega bo‘lib, mavzun she’rlar yaratsada, ammo o‘zi yaratgan she’rining vaznini aniqlay olmasa, u shaxsni shoir demaydilar. Nisoriy bu so‘zi bilan XVI asr shoirlariga aruz vaznini bilish shoirlikning eng muhim shartlaridan biri ekanligini ta’kidlaydi.

Ikkinchi bobning uchinchi fasli “*Chahor gulzor*”da XVI asr aruz ilmining nazariy va ta’limiy masalalari tadqiqi” deb nomlanib, unda Nisoriyning aruz ilmining juzv, rukn, zihof, bahr, doira kabi muhim masalalariga oid ilmiy va ma’rifiy

<sup>9</sup> Хоча Ҳасани Нисорӣ. “Чаҳор гулзор”. Ба нашр ҳозиркунанда Д.Ҳочаев. – Душанбе, 1998. – С.75.

yondashuvlari o'tgan davr aruzshunoslari qarashlari bilan qiyosiy tarzda tahlil etilgan.

Nisoriy aruz juzvlarini o'rganish orqali she'rda har uchala juzv: sabab, vatad va fosila birgalikda qo'llanilsa, o'sha she'rda yaxshi ohang bo'lmasligini isbotlaydi. Aruzshunos nuqtayi nazaridan yana bir mezon shundan iboratki, sabab, vatad va fosila juzvlari alohida-alohida she'r ruknlarini tashkil etmaydi va muallif ularni fors-tojik shoirlari she'rlari misolida tasvirlab bergan. Masalan, aruzshunosning bu masala bo'yicha qarashi quyidagicha: "Mavzun kalomni yaratishda bu arkon uchligi (sabab, vatad va fosila – X.Mirzayev)ni birga ishlatish joiz emasdir va faqat bittasidan foydalanish ham mumkin emasdir"<sup>10</sup>. Bu qarashning muhimligi shundaki, Nisoriy fors-tojik aruzshunoslari orasida birinchilardan bo'lib bayt arkonlarida aruz juzvlarining ruknda joylashuv me'yorlarini belgilab bergan. Aruzshunos tomonidan juzvlardan foydalanish haqidagi ishlab chiqilgan konsepsiya XVI asr she'riyat avzonining solim va nosolimligini aniqlashda muhim vosita bo'lib, Nisoriyning mumtoz she'riyat poetikasi tanqidchisi sifatida gavdalantiradi.

Nisoriy aruz ruknlari va zihoflarini o'rganish va talqin qilishda Abdurahmon Jomiy bilan mushtarak fikrlab, bu aruzshunos kabi sakkiz asliy rukndan fors-tojik nazmida iste'mol qilinishi mumkin bo'lgan quyidagi besh rukn: mafoiylun, foilotun, mustaf'ilun, maf'ulotu, faulun haqida so'z yuritgan. Nisoriy alohida faslda bu besh ruknning zihof va furu'larini tasniflab, ularning nomlari va miqdorini ko'rsatgan. Bu ruknlarning zihof va furu'larini o'rganish va izohlash borasida "Chahor gulzor" va XV asrda yaratilgan aruzga oid risolalardagi ma'lumotlar solishtirilib, Nisoriy Jomiydan faqat mafoiylun rukni furu'larini beshta ko'p ko'rsatganligi ma'lum bo'ldi. Boshqa ruknlarda aruzshunos topgan zihof va furu'lar soni Jomiy keltirgan ko'rsatgichlardan ba'zan kam va ba'zan u bilan teng ko'rsatilgan.

Nisoriy bahrlar avzonini o'rganar ekan, ularning fors-tojik she'riyatida qo'llanish ko'lamini hisobga olgan. U amalda iste'molda bo'lgan bahrlar haqida keng to'xtalib, o'z davri nazmida kam qo'llanilgan bahrlar haqida Jomiy, Sayfiy, G'iyosiddin Dashtakiylar kabi juda kam ma'lumot bergan. Shu sababli, u arab aruziga xos beshta bahr va fors-tojik aruziga xos ba'zi bahrlar haqida qisqacha ma'lumot berishni afzal ko'rgan va ularning faqat birgina solim vaznlarini ko'rsatish bilan kifoyalangan. Xususan, u Qarib va Jadid bahrlari haqidagi ma'lumotlarni birikki jumla hajmida keltirib, ularning o'z davri she'riyatida kam qo'llanilishini quyidagicha ta'kidlaydi: "Sir bo'lmasinki, bu ikki bahr (Jadid va Qarib – X.Mirzayev) oxirgilar tomonidan yaratilgan. Hej bir ustozlarning devonlarida biror she'r bu bahrlarda kuzatilmadi, shuning uchun, ular zikriga azm etilmadi"<sup>11</sup>. U bu bahrlarni "oxirgilar" yaratgan deb, Xalil ibn Ahmad va Axfash Nahviydan keyin fors-tojik aruzshunoslari tomonidan yaratilganligiga ishora qiladi. Nisoriyning yuqoridagi so'zlaridan yana shu narsa oydinlashadiki, u Jadid va Qarib bahrlariga shunchaki yuzakiy qaramagan. U shoirlar devonlarini varaqlab, izlanishlar olib borgan va bu bahrlarda she'riy misollar topilmaganligi sabab XVI asr fors-tojik she'riyatida ularning o'rni yo'qligini anglagan. Bu yondashuvlardan shuni tushunish

---

<sup>10</sup> O'sha asar. – B. 81.

<sup>11</sup> O'sha asar. – B. 97.

mumkinki, har bir bahr avzonining amalda iste'mol darajasi o'tgan va zamondosh shoirlarning she'riy devonlari vaznlarini o'rganish va tahlil qilish mezonida aniqqlangan. "Chahor gulzor"ning bu jihatlari ham XVI asr mumtoz she'riyati poetikasining umumiy holatini anglashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Nisoriyning "Chahor gulzor" asarida aruz ilmini soddalashtirish, undagi ba'zi murakkabliklardan voz kechish va bu ilmni endi o'rganuvchilar tasavvuriga yaqinlashtirish g'oyasi ilgari surilgan. Shu nuqtayi nazardan unda aruz ilmining ayrim murakkab jihatlari haqida so'z yuritilmaydi. Masalan, Nisoriy davri tolibiilmilariga aruz ilmini o'zlashtirishda qiyinchilik tug'dirgan muammolardan biri aruz doiralari o'rganish masalasi edi. Nisoriy ta'limotining boshqa aruzshunoslardan ajralib turadigan jihatlardan biri ham aynan aruz doiralari mavzusiga e'tibor qaratmaganligida ko'rinadi. U bu tashabbusi bilan bir tomondan aruzshunoslar orasida doira tuzish an'anasini chetlab o'tgan bo'lsa, ikkinchi tomondan aruz ilmini o'rganuvchilar uchun ma'lum bir yengillik va ixchamlikni targ'ib qilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Muhammad G'iyosiddinning "Me'roj ul-aruz" risolasida mumtoz aruz nazariyasi asoslari**" deb nomlangan va uch fasldan tashkil topgan. Bobning "*Muhammad G'iyosiddinning "Me'roj ul-aruz" risolasida juzv va rukn talqini*" nomli birinchi faslida mumtoz aruziga xos kichik birliklar – juzv va rukn masalalari talqini, muallifning mazkur mavzuga oid yondashuvlari o'tgan davr aruzshunoslari ma'lumotlari bilan qiyosiy ravishda o'rganilgan.

Muhammad G'iyosiddin Rompuriy XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida Hindistonda yashab ijod etgan mashhur filolog olim hamda lug'atshunos donishmandlardan hisoblanadi. Uning "G'iyos ul-lug'ot" asari izohli lug'at sifatida XIX asrgacha yaratilgan fors-tojik lug'atchiligini ma'lum darajada o'zida mujassam etgan. Muallif mazkur lug'at tarkibida "aruz" istilohi ostida "Me'roj ul-aruz" ("Aruz darajalari") nomli mustaqil risola yaratgan. "Me'roj ul-aruz" aruz ilmiga bag'ishlangan risola bo'lib, 1827 yilda yozilgan. Bu risola bizgacha to'liq shaklda yetib kelgan bo'lib, ham "G'iyos ul-lug'ot" tarkibida va ham alohida shaklda bir necha marotaba nashr etilgan<sup>12</sup>.

"Me'roj ul-aruz" kirish va o'n uch fasldan tashkil topgan. Muallif asarning muqaddimasida uning yaratilish sabablari, she'rning lug'aviy, istilohiy ma'nolari, Xalil ibn Ahmad tomonidan aruz ilmining qanday kashf etilishi haqida so'z yuritadi. Asarning asosiy qismida juzv, rukn, bahr va doira kabi aruz ilmining muhim nazariy masalalari bayon etilgan. Muhammad G'iyosiddin aruz ilmi ustozlari Shams Qays Roziy, Nasiriddin Tusiy, Abdurahmon Jomiy, Sayfiy Buxoriylar singari kichik she'riy o'lchov birliklari, ya'ni sabab, vatad, fosila va ularning turlari haqida so'z yuritib, nazariy mohiyatini o'quvchiga batafsil tushuntiradi. Bu borada aruzshunos har bir juzvning xillari – vatadi majmu' (vatadi maqrun), vatadi mafruq, sababi xafif, sababi saqil, sababi mutavassit, fosilayi kubro, fosilayi sug'ro va fosilayi uzmo haqida nisbatan sodda til va uslubda so'z yuritadi.

---

<sup>12</sup> Мухаммад Гийосиддин. "Гийос-ул-луғот". Иборат аз се чилд. Чилди 2. Таҳияи матн бо пешгуфтор, мулҳақот, тавзеҳот ва феҳристи Амон Нуров. – Душанбе: Адиб, 1988. – С.42-63; Се рисолаи арӯз: "Меъроҷ-ул-арӯз". Муаллифони сарсухану тавзеҳот ва ҳозиркунандагони чоп Урватуллои Тоир ва дигарон. – Душанбе, 2014. – С.84-123.

Muhammad G'iyosiddinning rukn mavzusi yuzasidan ilgari surgan qarashlari ham nazariy va ham amaliy jihatdan ahamiyatli ko'rinadi. U she'r taqti'ida ruknlar musamman, musaddas, murabba', musallas va musanno shakllarida kelishi hamda qaysi shakllar mumtoz she'riyatda kuzatilishi va qaysi shakllar arab she'riyatiga xos ekanligi haqida quyidagicha mulohaza yuritadi: "Ajam shuarosi musamman va musaddasni ko'proq ishlatganlar va murabba'ni juda kam. Va musallas va musanno forsiyda aslo kelmagan, faqat arab she'riyatiga xosdir"<sup>13</sup>. Aruzshunos ta'kidlaydiki, ajam shoirlari asosan ruknlarning musamman (8 martalik) va musaddas (6 martalik) shakllarida she'r bitganlar, ularning she'riyatida murabba' (4 martalik) shakli juda kam ko'zga tashlanadi. Muhammad G'iyosiddin xulosa qiladiki, musallas (3 martalik) va musanno (2 martalik) shakllari arab she'riyatida qo'llanilgan bo'lsa-da, fors-tojik she'riyati amaliyotida hech qachon qo'llanilmagan.

Bu masalada boshqa mumtoz poetika nazariyotchilari ko'proq sukut saqlashsada, zamonaviy aruz ilmi tadqiqotchilari, jumladan, Urvatulloy Toirov musallas va musanno shakllarining fors-tojik she'riyati bilan bog'liq jihatlari haqida o'ziga xos mulohazalarni ilgari surgan. Olim Muhammad G'iyosiddinning musallas shakli iste'mol darajasi haqidagi fikriga qo'shiladi. Biroq tojik she'riyatida musanno shaklini qo'llash masalasida adabiyotshunos Muhammad G'iyosiddin fikriga qo'shilmaydi va musanno shaklining tojik she'riyatida borligini isbotlash uchun xalq og'zaki ijodidan va zamonaviy she'riyatdan ikki she'riy misolni keltirib, ularning vaznini aniqlaydi hamda ruknlari musanno shaklida ekanligini isbotlaydi<sup>14</sup>.

Bizningcha, Muhammad G'iyosiddinning fors-tojik she'riyatida musanno shakli qo'llanilmasligi haqidagi fikri ikki jihatdan ilmiy asosga ega. Birinchidan, aruzshunos o'z davri (XVIII-XIX asrlar)gacha mumtoz fors-tojik she'riyati amaliyotida musanno shaklini chuqur sinovdan o'tkazgan. Ikkinchidan, Urvatulloy Toirov keltirgan barcha she'riy misollar "Me'roj ul-aruz" yaratilishi davridan qarib ikki asr o'tib yuzaga kelgan, ya'ni XX asr xalq og'zaki ijodi yoki bolalar adabiyoti vakillariga xosdir. Demak, bu holat mumtoz aruzshunosligi masalasi emas, balki zamonaviy aruzshunosligining nazariy va amaliy hodisasi hisoblanadi.

Shunday qilib, Muhammad G'iyosiddin aruz ilmi ustoz sifatida fors-tojik she'riy ruknlarining eng ko'p qo'llanilgan, kam qo'llanilgan va qo'llanilmagan shakllarini aniqlab, aruz ilmini o'rganuvchi talabalar uchun ham, mumtoz poetika tadqiqotchilari uchun ham o'zidan muhim ilmiy-nazariy qo'llanma qoldirgan.

Uchinchi bobning ikkinchi fasli "*Me'roj ul-aruz*"da zihof va ilal masalalariga oid yangicha yondashuvlar" deb nomlanib, unda muallifning aruz vaznining eng murakkab masalalari sanalgan zihof va ilal haqidagi qarashlari, bu aruziy birliklar borasida fors-tojik aruzshunosligida kuzatilmagan yangicha yondashuvlari tadqiq etilgan.

Aruzshunosning qarashlarini o'rganishdan oldin zihof ta'rifini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. **Zihof** – aruz ilmida asliy bahrdagi solim rukn (*mafoiylun, foilotun, mustaf'ilun, maf'ulotu, foilun, mutafoilun*)ning biron bir juzvini o'zgartirish (rukning biron juzvini ko'paytirish yo ozaytirish, biron harf yo

<sup>13</sup> "Се рисолаи арӯз": "Меъроҷ-ул-арӯз". Муаллифони сарсухану тавзеҳот ва ҳозиркунандағони чоп Урватуллои Тоир ва дигарон. – Душанбе, 2014. – С.92.

<sup>14</sup> O'sha asar. – B. 124.

bo'g'inning fonetik o'zgarishi) hodisasini ifodalovchi atamadir<sup>15</sup>. Yuqoridagi ta'rifdan ko'rinib turibdiki, zihof aruz vazniga oid muhim va nozik masala bo'lib, uni o'rganish va anglash aruz ilmining asosiy talablaridan biridir.

XIII-XIX asrlarda faoliyat ko'rsatgan mualliflarning aruzga oid risolalarini qiyoslashdan ma'lum bo'ldiki, aruz ilmi ustoz Shams Qays Roziy zihoflar sonini 35 ta ko'rsatgan bo'lsa, XV asr aruzshunoslari, jumladan, Vahid Tabriziy 30 ta, Jomiy 21 ta, Sayfiy 18 ta zihofni mumtoz poetika nazariyasi va amaliyotida qo'llanilganligini aniqlashgan. XVI asr aruzshunoslari, jumladan, Xoja Hasan Nisoriy ham zihoflar sonini o'z ustozlaridan ko'p ko'rsatmagan. Muhammad G'iyosiddin o'zining "Me'roj ul-aruz" asarida fors-tojik aruzi zihoflari sonini o'zidan oldingi va zamondosh mualliflariga qaraganda ancha ko'p ko'rsatgan. U jami 47 ta zihof va ilalni alohida sanab, ularning har birini nisbatan batafsil tushuntirib bergan. Ta'kidlash joizki, *izmor, qas, asb, aql, xazl, naqs, mukonafa, xal'* zihoflari va *tarfil, xazm, qatf, hazaz, g'azb, qasam, jamam, aqs* ilallari haqida fors-tojik aruzshunosligining XIX asrgacha bo'lgan davrida faqat "Me'roj ul-aruz" risolasida uchramiz. Bu holatni asarning yangiliklaridan biri va muallifning aruz zihoflari tadqiqi yo'lidagi yutug'i sifatida tavsiflash mumkin.

Ta'kidlash joizki, zihoflarning tarkibiy qismlariga doir qarashlar fors-tojik aruzshunosligida Muhammad G'iyosiddingacha kuzatilmaydi. Bu aruzshunos birinchilardan bo'lib zihoflarni mufrad (sodda) va murakkab xillarini alohida ajratib, ularning bunday tarkibiy qismlarga bo'linish qoidasini tushuntirgan. Muallif tasnifidan oydinlashadiki, *izmor, xabn, qas, tay, asb, qabz, aql, kaf* zihoflari tuzilish jihatidan mufrad va *xabl, xazl, shakl, naqs, tash'is, muoqabat, muroqaba, mukonafa* zihoflari tuzilish jihatidan murakkab zihoflar sirasiga kiradi.

Aruzshunos mazkur zihoflarning izohidan so'ng, **ilal** sharhiga o'tadi. U avvalo ilalning ta'rifini quyidagicha keltiradi: "Bilginki, ilal illatlar yig'indisidir. Va istilohda ruknning boshi yo oxiridan zihof amalidan boshqa yana biror narsani kamaytirish yo ko'paytirishdir"<sup>16</sup>. Ilalning lug'aviy ma'nosini Muhammad G'iyosiddin "kasalliklar majmui" deb izohlaydi. Istilohda esa, ruknning vatad qismida sodir bo'lgan o'zgarish va bu vatad bayt arkonining aruz (birinchi misraning oxirgi rukni) va zarb (ikkinchi misraning oxirgi rukni) qismlariga taalluqli bo'lsa, ilal deb nomlaydilar. Shuningdek, aruzshunos ta'kidlaydiki, o'tmishda ko'plab ustozlar zihof va ilal hodisasini bir xil nazariy hodisa sifatida baholaganlar, ammo aruz ta'limotida bu ikki aruziy birlik sifatida qaralishi maqsadga muvofiq. Muallifning aynan bu yondashuvini "Me'roj ul-aruz"ni nashrga tayyorlagan muharrirlar quyidagicha ta'riflagan edilar: "Muhammad G'iyosiddin zihof va ilalni aralashtirib, har ikkisini zihof atamasi ostida izohlagan oldingi aruz risolalari mualliflaridan farqli o'laroq zihof va ilalni ajratib, har birini o'z o'rnida talqin etadi"<sup>17</sup>.

Muhammad G'iyosiddin ilallarni ruknda paydo bo'lish yo'llarini hisobga olib, uch guruhga ajratgan. Birinchi guruhga rukn oxiriga harf qo'shish orqali yaratilgan

<sup>15</sup> Тоиров Урватулло. Фарҳанги истилоҳоти арӯзи Аҷам. – Душанбе: Маориф, 1991. – С. 72.

<sup>16</sup> "Се рисолаи арӯз": "Меъроҷ-ул-арӯз". Муаллифони сарсухану тавзеҳот ва ҳозиркунандағони чоп Урватуллои Тоир ва дигарон. – Душанбе, 2014. – С.97.

<sup>17</sup> O'sha asar. – B. 87.

ilallar kiradi va ular quyidagilardan iborat: *izolat, tasbig', tarfil va xazm*. Ikkinchi guruhga rukn oxiridan harf tushirish yoki kamaytirish yo'li bilan hosil bo'ladigan ilallar kiradi va ular quyidagilardan iborat: *hazv, qatf, qasr, qat', hazaz, salm (sod harfi bilan), vaqf, kasf, batar*. Uchinchi guruhga rukn boshidan harf tushishi natijasida hosil bo'ladigan ilallar kiradi va ular quyidagilardan iborat: *xarm, salm, saram, shatar, xarb, g'azb, qasam, ajam, aqs, raf'*. Aruzshunos bu ilallarning har birini she'r vaznida qanday o'ringa ega ekanligi haqida ma'lumot berib o'tgan.

Shunday qilib, Muhammad G'iyosiddin XIX asrgacha zihof hodisasi bo'yicha mumtoz aruzshunoslar o'rtasida kuzatilgan birxillikka asoslangan bahsga yangicha nuqtayi nazar bilan kirib keldi. U zamonaviy fan nazariyasida ilal qoidasi mavjudligini isbotlab berdi va keyingi davr mutaxassislari uchun uni qanday o'rganish va aniqlash usulini ko'rsatishga erishdi.

Bobning “*“Me'roj ul-aruz”da bahr va doiralar tasnifi*” nomli uchinchi faslida Muhammad G'iyosiddinning bahrlar tasnifi, ularning tarmoq vaznlari haqidagi qarashlari va aruz doiralarga oid izlanishlari o'tgan va zamondosh aruzshunoslar yondashuvlari bilan qiyoslangan hamda aruzshunosning mazkur nazariy masalalar talqinidagi o'ziga xos yutuqlari aniqlangan.

Aruz ilmida **bahr** va **doira** masalalari o'rganish nuqtayi nazaridan muhim hamda ko'lamli keng mavzulardan sanaladi. Muhammad G'iyosiddin o'zining “*Me'roj ul-aruz*” risolasida bahr va doira masalasiga jiddiy to'xtalib, o'tmishdagi salaflari kabi keng qamrovli izlanishlarni amalga oshirgan. Aruzshunosning bahr masalasi bo'yicha qarashlarini o'rganishdan oldin ushbu istiloh haqida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq.

**Bahr** arabcha so'z bo'lib, lug'aviy ma'nosi “teshilmoq”dir. Sayfiy Buxoriy “*Aruzi Sayfiy*” risolasida “bahr lug'atda daryodir” deydi<sup>18</sup>. Aruzshunoslik ilmida “bahr” so'zi “guruh” degan ma'noni anglatadi. Shu nuqtayi nazardan, u yoki bu asliy rukn asosida yoki ikkita asliy ruknning birikmasidan kelib chiqadigan ma'lum bir vaznlar guruhi “bahr” deb ataladi.

Muhammad G'iyosiddin “*Me'roj ul-aruz*”da bahrlarning paydo bo'lish tarixiga to'xtalib, birinchi navbatda aruz ilmi asoschisi Xalil ibn Ahmad kashf etgan bahrlar haqida gapiradi: “Bilginki, avval Xalil ibn Ahmad aruz ilmi binosini quyidagi o'n besh bahr asosida yaratgan edi: *Tavil, Madid, Basit, Komil, Vofir, Ramal, Hazaj, Rajaz, Munsarih, Muzori', Sari', Xafif, Mujtass, Muqtazab va Mutaqorib*”<sup>19</sup>. Aruzshunos ta'kidlaydiki, Xalil ibn Ahmad 19 ta arab va ajam aruzi bahrlaridan 15 tasini birinchi bo'lib kashf etgan va ularni o'z davri she'riyatining asosiy me'yori deb hisoblagan. Muhammad G'iyosiddin Mutadorik bahrini Xalil ibn Ahmaddan keyin uning izdoshi Abulhasan Axfash o'n oltinchi bahr sifatida kashf etkanligi, yana uchta bahr – Qarib, Jadid va Mushokilni keyingi davr fors aruzshunoslari ixtiro etkan degan muhim tarixiy ma'lumotlarni keltiradi.

Aruzshunos bahrlar va ularning tarmoq vaznlarini o'rganar ekan, ba'zi yangi va hali aniqlanmagan vaznlar, ularning turli shakllarini kashf etishga muvaffaq bo'lgan. Xususan, Rajaz, Mutadorik va Mutaqorib bahrlarini o'rganish jarayonida

<sup>18</sup> Сайфӣ. Арӯзи Сайфӣ. Ба нашр тайёркунанда Ҳ.Блошман. – Калькутта, 1872. – С.15.

<sup>19</sup> “Се рисолаи арӯз”: “Меъроҷ-ул-арӯз”. Муаллифони сарсухану тавзеҳот ва ҳозиркунандагони чоп Урватуллои Тоир ва дигарон. – Душанбе, 2014. – С.91.

muallif o'rta asr shoirlari she'riyatida mazkur bahrlarning o'n olti ruknli shakllarini aniqlagan. Chunonchi, aruzshunos Mutadorik bahrining yangi shakldagi vazni haqida "Va ba'zilar Mutadoriki maxbunni o'n olti ruknda bino etganlar"<sup>20</sup> deb, quyidagi baytni misol sifatida keltirgan:

Mayu nag'ma musallami havsala, ki qadahkashi gardishi sar nashavad,  
Bihil ast sabuksari on qadarat, ki dimog'i jununzada tar nashavad<sup>21</sup>.

*failun / failun / failun / failun / failun / failun / failun / failun*  
*V V - / V V - / V V - / V V - / V V - / V V - / V V - / V V -*

Aruzshunosning ko'rsatishicha mazkur bayt Mutadoriki maxbun vaznida yaratilgan va unda *failun* rukni o'n olti marotaba takrorlangan. Ta'kidlash joizki, Muhammad G'iyosiddingacha hech bir aruzshunos Mutadorik bahrining bunday shaklini topmagan edi. Aruzshunos keltirgan she'riy misol mashhur fors-tojik shoiri Mirzo Abdulqodir Bedil (1644-1721) qalamiga mansub. Bu she'r yaratilgan davrni hisobga oladigan bo'lsak, ehtimol Mutadorik bahrining o'n olti ruknli shakli IX-XVI asrlar she'riyatida qo'llanilmagan yoki mavjud bo'lgan taqdirda ham aruz ilmi ustozlari nazaridan chetda qolgan. Aruzshunosning bu yutug'i uning o'z davridan ancha oldin yozilgan aruz risolalarining she'riy namunalari, qadimgi shoirlar she'riy devinlari bilan cheklanib qolmay, o'z davriga yaqin (masalan, Fayziy, Urfiy, Bedil kabi shoirlar misolida) mumtoz she'riyati amaliyotiga ham e'tibor berganidan dalolat beradi. Muallifning mazkur yondashuvi bunday vaznlarning yangi va noyob turlarini topishiga muhim omil bo'lib xizmat qilgan.

Muhammad G'iyosiddin "Me'roj ul-aruz" asarida xuddi bahrlarni o'rganish va talqin qilishda bo'lgani kabi aruz doiralarini ham o'rganish, ularning tarkibiy qismlarini tasniflashga jiddiy harakat qilgan. Ma'lumki, Xalil ibn Ahmaddan keyin ajam aruzida doiralar tuzish va ular soni bilan bog'liq turlicha qarashlar ilgari surilgan. Masalan, Shams Qays Roziy ajam aruzi doiralarini to'rtta deb hisoblaydi: Mu'talifa, Muxtalifa, Muntazia, Muttafiqa; Nasiriddin Tusiy beshta: Mujtalibai solima, Mujtalibai muzohafa, Mushtabhai musamma, Mushtabhai musaddasa, Muttafiqa; Abdurahmon Jomiy to'rtta: Mu'talifa, Muxtalifa, Muntazia, Muttafiqa; Sayfiy Buxoriy beshta: Mujtaliba, Mushtabaha, Muttafiqa, Muxtalifa, Mu'talifa deb ko'rsatganlar.

Muhammad G'iyosiddin "Me'roj ul-aruz"da arab va fors nazariyotchilarining qarashlarini umumlashtirib, aruz doiralari sonini oltitaga yetkazadi va ular quyidagilardan iborat: Muxtalifa, Mu'talifa, Mujtaliba, Mushtabaha, Muntazia, Muttafiqa. Ko'rinadiki, bu muallif fors-tojik aruzshunoslari orasida doiralar sonini ko'proq ko'rsatib, doira bilan bog'liq bahsli masalaga ma'lum darajada oydinlik kiritishga harakat qilgan. Shuningdek, Muhammad G'iyosiddin doira masalasi ta'limoti va uni tartibga solish tamoyillari kabi dolzarb mavzularga urg'u berish bilan birga zamondoshlari va keyingi avlod aruzshunoslari uchun doira mavzusi yuzasidan o'qitishning sodda va tushunarli usullarini ishlab chiqishga erishgan.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi "**XVIII-XIX asrlar aruzshunosligida mumtoz aruz nazariyasiga yondashuv tamoyillari**" deb nomlangan va uch faslni

---

<sup>20</sup> O'sha asar. – B. 121.

<sup>21</sup> O'sha asar. – B.121.

o‘z ichiga olgan. “*Muntaxab ul-aruz*” – *aruz ilmiga oid dasturiy qo‘llanma sifatida*” nomli birinchi faslida “Muntaxab ul-aruz” risolasining mundarijasi, ilmiy-ma‘rifiy ahamiyati o‘rganilib, uning yaratilish davrini tadqiq etish fonida XVIII-XIX asrlarda aruz ilmining qaysi mintaqalarda rivojlanganligi, bu davrda bir qator aruzga oid risolalar yaratilganligi haqida izlanishlar olib borilgan.

XVIII-XIX asrlar manbalari bilan tanishganda ma‘lum bo‘ldiki, Samarqand, Buxoro, Xorazm, Qo‘qon, Xujand, Hirot adabiy markazlarida ilmiy adab uchligi, jumladan, aruz ilmi va unga oid risolalar maydonga kelmaganligi oydinlashdi. Mazkur asrlarda ko‘proq Hindiston, Pokiston va Eron zaminlarida she‘riyat va adabiyot ravnaq topganligi sababli aruz, qofiya, badi‘ ilmlariga ehtiyoj va qiziqish qaytadan ortgan. Natijada bu mintaqalarda “Me‘roj ul-aruz”, “Muntaxab ul-aruz”, “Shajarat ul-aruz”, “Risolayi ruboiy” kabi bir qator aruz ilmiga oid asarlar yaratildi. Bigungi kunda ularni o‘rganish, zamonaviy nazmshunoslik va aruzshunoslik yo‘nalishlarida ularga xos ilmiy-ma‘rifiy yondashuvlarni tatbiq etish nihoyatda dolzarb hisoblanadi.

Davr aruzshunoslik ilmida o‘zining ilmiy va o‘quv materiallari bilan alohida ahamiyat kasb etgan asarlardan biri “Muntaxab ul-aruz” risolasi hisoblanadi. “Muntaxab ul-aruz”ning muallifi va yaratilgan yili ma‘lum emas. Bu risolaning yaratilish tarixi XIII asr shoir va olimi Abunabr Farohiyning “Nisob us-sibyon” asari bilan bog‘liq. Taniqli adabiyotshunos Urvatullo Toirovning yozishicha, “Nisob us-sibyon” asariga keyingi asrlarda bir qator sharhlar yozilgan. Ularning birida “Muntaxab ul-aruz” nomli kichik risola noma‘lum muallif tomonidan ilova qilingan. “Muntaxab ul-aruz” oxirgi o‘n yilliklarda topilgan va hali tadqiq etilmagan manbalardan hisoblanadi. Bu risolani nashr etishda Urvatullo Toirovning xizmati beqiyos. Bu olim 2007 yilda “Muntaxab ul-aruz”ni yana ikkita nazariy asar: “Risolayi ruboiy” va “E‘jozi Xusraviy” bilan birgalikda bir to‘plamda nashr ettirdi<sup>22</sup>.

“Muntaxab ul-aruz” muallifi o‘tmishdagi qarashlarni qo‘llab-quvvatlagan holda mazkur ilmning juzv, rukn, zihof, bahr va doira kabi asosiy birliklari haqida o‘zining shaxsiy nuqtayi nazarini keltirib o‘tgan. Xususan, risolada **aruz juzvlari** haqida muallif o‘zidan oldingilarning ikki xil qarashlarini keltirib, o‘zi uchinchi nuqtayi nazarni zikr etkanligi, sabab, vatad va fosila juzvlarini tarkib jihatidan uch xil deb ko‘rsatib, ularning har birini misollar bilan asoslaganligi, bu yondashuv va tahlil qilish usuli boshqa aruzshunoslar asarlarida uchramasligi risola muallifining muhim yutug‘lari sifatida qaraladi. Muallifning juzvlar haqidagi mazkur yondashuvlari zamonaviy aruzshunoslikda ham qabul qilinganligi “Muntaxab ul-aruz” risolasining ma‘rifiy qiymatini yanada oshiradi. “Muntaxab ul-aruz” muallifi aruz arkonlarini tashkil etuvchi juzvlarni tushuntirib bo‘lgach, **ruknlari** masalasiga to‘xtaladi. U fors-tojik she‘riyatida qo‘llanilgan barcha solim ruknlarni tilga olib, ularni nisbatan sodda til va uslubda tushuntirishga harakat qilgan. Aruzshunos aynan ruknlari aruz bahrlarini yaratuvchi asosiy mezon ekanligini o‘qtiradi. U bahrlarni ruknlarni qamrab olish nuqtayi nazaridan ikki turga ajratgan: birinchi tur, bir ruknning takrorlanishidan hosil bo‘lgan bahrlar; ikkinchi tur, ikki ruknning takrorlanishidan hosil bo‘lgan bahrlar. Aruzshunos “Va bu bahrlardan ba‘zilari bir

<sup>22</sup> “Мунтахаб-ул-арӯз”, “Рисолаи рубой”, “Эъҷози Хусравӣ”. Ҳозирқунандаи нашр Урватулло Тоиров. – Душанбе: Ҳумо, 2007. – 88 с.

ruknni takrorlashdan, ba'zilar esa ikki ruknni takrorlashdan hosil bo'ladi. Bir rukn takrorlanishidan hosil bo'ladiganlar shular"<sup>23</sup> deb, maxsus ruknga ega bahrlar nomini zikr etadiki, ularning soni yettita va ular quyidagi bahrlardan iborat: Hazaj, Rajaz, Ramal, Komil, Vofir, Mutaqorib va Mutadorik. "Va ikki rukn takrorlanishidan hosil bo'ladiganlar shular"<sup>24</sup> deb, maxsus ruknga ega bo'lmagan, ikki rukn takrorlanishidan yoki zihoflarning qo'shiluvidan hosil bo'luvchi bahrlar nomini zikr etadiki, ularning soni o'n ikkita va ular quyidagi bahrlardan iborat: Muzori', Xafif, Mujtass, Sari', Munsarih, Muqtazab, Tavil, Madid, Basit, Mushokil, Qarib, Jadid. Bunday ta'limot asliy va far'iy vaznlarning aniqlashda hamda taqti'lashda o'quvchilarga yengillik taqdim etadi.

Bobning "“Muntaxab ul-aruz”da bahr va doira masalalarining o'rganish tamoyillari” nomli ikkinchi faslida muallifning bahrlar va ularning tarmoq vaznlarini o'qitish yo'lidagi izlanishlari, aruz doiralariga oid munosabatlari tahlil etilgan.

“Muntaxab ul-aruz”da *bahr* va *doira* masalalari aruz ilmiga oid boshqa mavzularga qaraganda kengroq muhokama qilinadi. Jumladan, bahr va uning tarmoq vaznlariga doir muhim tafsilotlar aruzshunoslikda oldin kuzatilmagan usul bilan keltirilgan. Ya'ni muallif bahrlarning solim va muzohaf vaznlari talqinini ikki bosqichda amalga oshirgan. **Birinchi bosqichda** Tavil bahridan boshlab, Mushokil bahrigacha bo'lgan o'n to'qqiz bahrning solim vaznlarini she'riy misollar asosida taqti'lab ko'rsatgan. Bu usul bilan vaznlarni ta'lim berish aruz ilmini endi o'rganayotgan shogirdlarga muhim dasturiy qo'llanma sifatida ahamiyatlidir. Zero ular dastlab bahrlar va ularning solim vaznlari bilan tanishadilar, solim vaznlarning taqti' qilish, eslab qolish muzohaf vaznlardan ancha osonligini muallif aruz ilmi ta'limotchisi sifatida targ'ib qilgan. **Ikkinchi bosqichda** muallif bu bahrlarning muzohaf vaznlarini mumtoz she'riyat amaliyotida ko'zdan kechirib, har bir bahrning faqat davr she'riyatida qo'llanilgan muzohaf vaznlarini ko'rsatishga harakat qilgan.

“Muntaxab ul-aruz” muallifi bahrlar tasnifi va talqini orqali uchta muhim masalaga jiddiy e'tibor bergan. Birinchidan, aruzshunos XVIII-XIX asrlar adabiy jarayonini kuzatib, fors-tojik shoirlari she'riyatida bahrlarning o'rni va qo'llanilish darajasini belgilab bergan. Ikkinchidan, u fors aruzining o'ziga xos jihatlarni Jadid, Qarib, Mushokil bahrlarini keltirish bilan asoslagan. Uchinchidan, arab va fors she'riyatida o'n bir bahrning mushtarakligi va ehtimoliy qo'llanilishiga urg'u berib, Sharqning ikki buyuk xalqi she'riyatining poetik nuqtayi nazardan yaqinligi va uyg'unligini isbotlagan.

“Muntaxab ul-aruz” muallifining ba'zi bahrlar haqidagi ma'lumotlarining muhim jihati shunda ko'rinadiki, u mumtoz adiblarning ayrim epik asarlari avzonini mavridida ko'rsatib o'tadi. Masalan, aruzshunos Ramali musaddasi mahzuf vaznini taqti'lashdan keyin, Shayx Fariduddin Attorning “Mantiq ut-tayr”, Mavlono Jaloliddin Rumiyning “Masnaviy Ma'naviy”, Bahouddin Omuliyning “Nonu Halvo” nomli doston va masnaviylarining mazkur vaznda yaratilganligini aniqlaydi va o'z o'quvchilariga bu haqda ma'lumot beradi<sup>25</sup>. Aruzshunosning bu ma'lumotlari aruz

---

<sup>23</sup> O'sha asar. – B.10.

<sup>24</sup> O'sha asar. – B. 10.

<sup>25</sup> O'sha asar. – B. 20.

ilmini o'rganuvchi shogirdlar uchun ham, mumtoz adabiyot tarixi ustozlari hamda tadqiqotchilari uchun ham juda muhim hisoblanadi.

“Muntaxab ul-aruz” risolasida o'rganilgan aruz ilmining nazariy masalalaridan yana biri **aruz doiralari** hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, XVI-XIX asrlar aruzshunoslari (Xoja Hasan Nisoriy, Muhammad G'iyosiddin va boshqalar) aruz doiralarini o'rganish va ularning nazariyasini ishlab chiqishda yangi bosqich yarata oldilar. “Muntaxab ul-aruz” muallifi ham mazkur jarayondan chetda qolmagan. U doira masalasiga alohida to'xtalib, avvalo aruz doiralarining paydo bo'lish tarixiga e'tibor qaratadi: “Bilgilki, ba'zi bahrlarning boshqalardan ustunligi va biri boshqasidan hosil bo'lganligi uchun Xalil ibn Ahmad beshta doira ixtiro etdi va ularga munosib nom qo'ydi. Va keyin forslar Muntazia nomli yana bir doira kashf etib, jami oltita doirani muqarrar deb hisobladilar”<sup>26</sup>. Ko'rinadiki, aruzshunos dastlabki beshta doira (Muxtalifa, Mu'talifa, Mujtaliba, Mushtabaha, Muttafiqa) ixtiro qilinishi va ularning nomlanishini Xalil ibn Ahmad bilan bog'lab, oltinchi doira – Muntaziani fors aruzshunoslari ixtirosi sifatida talqin qiladi. Ya'ni, aruz ilmida mazkur olti doira bo'lishligi va unda barcha bahrlar sig'ishi kerakligini tainlaydi. Ma'lum bo'ladiki, bu muallif Muhammad G'iyosiddinga ergashadi va o'z asarida oltita doira tuzadi hamda ularning qanday hosil bo'lganligini nisbatan sodda tilda tushuntiradi.

To'rtinchi bobning uchinchi fasli “*“Risolayi ruboiy” asarida ruboiy vazni masalalari*” deb nomlanib, unda fors-tojik aruzshunosligida ruboiy vazniga bag'ishlangan ilk mustaqil asar – “Risolayi ruboiy” va uning davr aruzshunosligidagi o'rni aniqlangan.

XVIII-XIX asrlar aruz ilmi masalalariga bag'ishlangan nazariy asarlardan biri Sa'dulloh Murodobodyning “Risolayi ruboiy” asaridir. Bu muallif XVIII asr oxirlari va XIX asrning birinchi yarmi fors-tojik nazariyotchisi va sharhlovchilaridan biri sanaladi. Sa'dulloh Murodobody Hindiston shimolidagi Murodobod shahrida taxminan 1782-1867 yillar oralig'ida yashab ijod qilgan.

“Risolayi ruboiy” ilk bor Hindistonda hijriy 1282 (milodiy 1875) yilda “Mizon ul-afkor fi sharhi “Me'yor ul-ash'or” nomli muallifning boshqa asari bilan birga nashr etilgan<sup>27</sup>. Mazkur risola haligacha adabiyotshunoslikda o'rganilmagan. Zero, so'nggi o'n yilliklarga tojik adabiyotshunoslariga “Muntaxab ul-aruz” risolasi kabi “Risolayi ruboiy” asarining ham mavjudligi haqida hech qanday ma'lumot yo'q edi. Urvatullo Toirov 2007 yilda “Risolayi ruboiy”ni yana ikkita nazariy asar: “Muntaxab ul-aruz” va “E'jozi Xusraviy” bilan birgalikda bir to'plamda nashr ettirdi va biz tadqiqotimizda shu nashrdan foydalandik<sup>28</sup>.

Sa'dulloh Murodobodyning ruboiy vazni, bu masala atrofida bayon etgan qarashlari va ilmiy yangiliklari quyidagilardan iborat: birinchidan, u aruzshunoslar orasida birinchilardan bo'lib forsiy ruboiylarining Hazaj bahrida yaratilgan to'rt qatorli arab shoirlari she'rlaridan farqli jihatlarini ko'rsatgan va dalil keltirganki, arab she'riyatidagi bunday shakllar murabba'ularkondir va fors-tojik shoirlarining

---

<sup>26</sup> O'sha asar. – B.13.

<sup>27</sup> Мавлоно Муфтийи Муҳаммад Саъдуллоҳ. “Мизон-ул-афкор шарҳи “Меъёр-ул-ашъор” маъа “Рисолаи рубой”. – Нувал Кишур, 1282. – С.222.

<sup>28</sup> “Рисолаи рубой”. Ҳозиркунандаи нашр Уrvatullo Тоиров. – Душанбе: Ҳумо, 2007. – С.29-38.

ruboiylari hamisha musammanularkon shaklida yaratilgan; ikkinchidan, aruzshunos yigirma to‘rt vaznli avzondan tashqari ruboiy avzonining yangi turlarini hosil qilish usullarini kashf etgan va sakson ikki ming to‘qqiz yuz qirq to‘rt turdagi ruboiy vaznlarining paydo bo‘lish imkoniyatlari borligini raqamlar hamda ilmiy-nazariy sxemalar bilan ko‘rsatishga harakat qilgan; uchinchidan, muallif o‘z asarida ruboiy avzoni doiralari haqida birinchilardan bo‘lib ma‘lumot berib, doiralar tuzishning shart yoki shart emasligi haqida o‘z yondashuvlari va xulosalarini bildirgan; to‘rtinchidan, u har bir ruboiy vazni shajaralarining tarkibini fors-tojik shoirlari ruboiylariga bog‘liq holda o‘rganib, eng yengil va eng og‘ir, eng tab‘ga yaqin va eng tab‘dan yiroq, eng ko‘p qo‘llanilgan va eng kam qo‘llanilgan vazn turlarini tegishli arkonlari bilan ko‘rsatgan; beshinchidan, mumtoz she‘riyati amaliyotida axram va axrab shajaralarining qo‘llanish ko‘lamini o‘rganib, fors-tojik shoirlari ruboiylarining aksariyati axrab shajarasiga tegishli tarmoq vaznlari asosida yaratilgan, degan qat’iy xulosaga kelgan.

Sa‘dulloh Murodobodiyning yuqorida sanab o‘tilgan yutuqlarining ahamiyati shunda ko‘rinadiki, ruboiy avzonining bu xususiyatlari bizgacha yetib kelgan aruz ilmiga oid risolalarning hech birida zikr etilmagan. “Risolayi ruboiy” asari ruboiy janri va uning vaznlarini o‘rganish uchun shu yo‘nalishda tadqiqot olib borayotgan olimlarga muhim nazariy manba sifatida ahamiyatlidir.

## XULOSA

1. XVI-XIX asrlarda yaratilgan aruz ilmiga oid risolalarning nazariy manbalari mavqeyi, ta‘sir darajasi, davr aruzshunosligiga material berish nuqtayi nazaridan asosiy va yordamchi manbalar sifatida tasniflandi. Asosiy manbalarga Shams Qays Roziyning “Al-mu‘jam”, Nasiriddin Tusiyning “Me‘yor ul-ash‘or”, Abdurahmon Jomiyning “Risolayi aruz”, Sayfiy Buxoriyning “Aruzi Sayfiy”, Vahid Tabriziyning “Jam‘i muxtasar”, Atoulloh Mahmud Husayniyning “Badoyi‘ us-sanoyi‘” nomli asarlari kiradi. Yordamchi manbalar biror jihatdan davr risolalari bilan bog‘liq bo‘lib, bu guruhga Abunasr Forobiyning “Kitob al-musiqiy al-kabir”, Muhammad ibn Umar Roduyoniyning “Tarjumon ul-balag‘a”, Rashididdin Vatvotning “Hadoyiq us-sehr”, Muhammad Avfiy Buxoriyning “Lubob ul-albob”, Salmon Sovajiyning “Risola”, Muhammad Ibnulqaysning “Hadoyiq ul-balag‘at”, “Hadoyiq ul-ajam” nomli asarlari kiradi.

